


Пиджак ва шим конструкциясига қўйиладиган талаблар икки гуруҳга бўлинади: истеъмолчи ва техник-иқтисодий.

Истеъмолчи талаблари инсон ўз эҳтиёжини қондиришга қаратилгандир, улар ижтимоий, эстетик, эргополик ва эксплуатацион талабларни ўз ичига олади.

Ижимоий талаблар-қийимнинг аҳоли эҳтиёжларига мослигини, уни ишлаб чиқариш ва сотиш заруратини белгилайди.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Roman-German filologiyasi fakulteti
dekani _____ p.f.n. D.Jo`rayev
“ _____ ” _____ 2012 yil

**Roman-German filologiyasi fakulteti
5220100-“Nemis filologiyasi” ta`lim yo`nalishi
4 -kurs 42- guruh talabasi**

QODIROVA MAXLIYONing

**“G.E.Lessingning ”Donishmand Natan” dramasi va
uning yozilish tarixiga doir” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

_____ talaba Qodirova M.
Ilmiy rahbar: _____ A. Maxmudov
“ _____ ” _____ 2012 yil

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Roman-German tillari” kafedrası
mudiri: _____ f.f.n. K.Markayev
“ _____ ” _____ 2012 yil

Qarshi-2012 yil

Reja:

Kirish

G.E.Lessing ijodida ma’rifatparvarlik g’oyalarning ifodalanishi

Asosiy qism

I bob.

G.E.Lessingning “Donishmand Natan” dramasi yozilishiga doir

I –bobga xulosa

II bob.

G.E.Lessingning “Donishmand Natan” dramada obrazlar taqini

2.1. Tarixiy shaxslar - bosh qahramonlar obrazida;

2.2. Dramada dinlararo tolerantlik;

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi: Nemis ma'rifatparvari G. E. Lessingning asarlari jahon adabiyotining umrboqiy asarlari qatoridan mustahkam o'rin olgan. Bular o'ta hayotbaxsh, o'ta dolzarb va umuminsoniy ahamiyatga molik olijanob g'oyalarni ifodalash bilan birga avlodlarni g'ayriinsoniy xatti-harakatlardan tiyish, yer yuzida tinchlik va osoyishtalik, mehr va muhabbat tantana qilgan hayotni barpo etish maqsadida yozilgan asarlarini o'rganish.

Bitiruv ishining maqsadi va vazifalari: Buyuk mutafakkir G. E. Lessing asarlarida G'arb va shu bilan bir qatorda Sharqning moddiy hamda ma'naviy tushunchalaridagi mushtaraklik masalasi, ma'rifatparvarlik g'oyalari talqini asosida yoritilgan. Mavzuni ilmiy asosda o'rganish maqsadida G.E.Lessningning "Donishmand Natan" dramasi va uning yozilishiga doir manbalar o'rganildi hamda tahlil etishga urinildi.

Bitiruv-malakaviy ishining ilmiyligi va ahamiyati:

G.E.Lessingning "Donishmand Natan" dramasi yozilishiga doir

Lessing dramaturgiyasining durdonalaridan biri haqli ravishda "Donishmand Natan" dramatik asari hisoblanadi. Bu asar nemis mumtoz adabiyotidagi ijtimoiy muhim masalalarga keng ko'lamda yondashilgani, o'ta insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilganligi bilan alohida ajralib turadi. Mazkur munaqqidlarning fikr-mulohazalariga qaraganda, nemis adabiyotida, ulkan ahamiyatga ko'ra, faqat Gyotening "Faust" asarigina Lessingning bu asaridan yuqori turishi mumkin.

Lessing "Donishmand Natan" ("Nathan der Weise", 1779) dramasi XII asr salb yurishlari tarixidan yozilgan bo'lib, adabiyotshunoslar uni "g'oyaviy drama" deb ataydilar. Sababi, dramada o'rta asrlarda o'zaro kurash olib borgan uch din - yahudiy, nasroniy va islom dinining g'oyaviy kurashi aks ettiriladi. Muallif bu dinlar o'rtasidagi umumbashariy jihatlarni ta'riflash bilan birga, g'ayriinsoniy fazilatlarni qoralaydi, din peshvolarini o'zaro hamjihatlikka chaqiradi, millatlar va ellatlarning qaysi dinga mansub bo'lmasin, bir-birini hurmat qilishga, qadrlashga da'vat etadi. Asosiysi, asarda tolerantlik g'oyasi ilgari suriladi.

G.E.Lessingning “Donishmand Natan” dramasi qahramonlar katologi

2.1. Tarixiy shaxslar - bosh qahramonlar siyosida;

“Donishmand Natan” dramasi Lessing davridagi sof poetikaning tartib-qoidalariga juda ham mos kelar edi. Dramada bosh qahramonlar qatorida Suriya va Misr sultoni Salohiddin obrazi gavdalangan. Sulton Salohiddin hukmronligi ostida xalq ommasi bir-birlari bilan diniy konfessiya asosida birlashgan. Yahudiy Natanning uyida Salohiddin, Rexa va Dayya istiqomat qilshar edi. Bu sharoitda islom dini ustuvorligiga qaramasdan Patriarx (cherkov peshvosi) nasroniy episkopi sifatida asosiy rol o'ynaydi. U Quddus shahridagi yuqori martabali cherkov peshvosi edi. Nasroniylar guruhi tarkibiga Dayya, rohib va shogird-rohiblar kiradi.

Dramada yakka hukmdor Salohiddin, cherkov peshvosi Patriarx va boy savdogar yahudiy Natan obrazlarini uchala – musulmon, nasroniy va yahudiy din vakillari sifatida ko'rish mumkin.

2.2. “Donishmand Natan” dramasi din va din vakillari (qiyosiy misolda);

Mashhur nemis ma'rifatparvari Gottxold Efraim Lessing “Donishmand Natan” dramasi sharqona ruhga e'tibor qaratilganini kuzatishimiz mumkin. Dramada juda ko'p tarixiy manbalardan, italyan, yahudiy, ba'zan sharq afsona va rivoyatlaridan keng foydalanganligini guvohi bo'lamiz.

Xulosa, taklif va tavsiyalar.

Xulosa qilib aytganimizda bizdan uch asr muqaddam yaratilgan bu asarning XXI asrda o'zbek tilida iste'dodli shoir va tarjimon Mirpo'lat Mirzo tomonidan mahorat bilan tarjima etilishi va “Jahon adabiyoti” jurnalining 2004 yil aprel va may oylari sonlarida e'lon qilinishi tasodifiy emas edi.

2005 yil bu dramatik asar ruscha va o'zbekcha tarjimalari O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyatida alohida kitob holida bosilib chiqdi. Bu kitobga germaniyalik jamoat arbobi, Fridrix Naumann nomidagi jamg'armaning Rossiya va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi vakili doktor Falk Bomsdorf so'zboshi yozgan.

Bitiruv malakaviy ishning manbalari. Jahon adabiyoti – o'zbek tilida, o'zbek adabiyoti – jahon tillarida.

Ulkan ma'rifiy ahamiyatga molik masala tarjimadir. Badiiy tarjima tufayli biz ko'p millatli o'zbek xalqining sara asarlarini o'zga tillarga tarjimasini tahlil qilish va buyuk asarlar tarjimasini ustidagi ijodiy ishlar sira to'xtamaydi.

“Donishmand Natan” dramasi ham o'zbek tilidagi mumtoz nemis adabiyotining durdonasi, ham g'oyalari ruhida tarbiyalash ishida o'z vazifasini sharaf bilan o'tashiga

ishonamiz va barcha kitobxonlarga mana shu dramadagi xalqaro, dinlararo tolerantlik g'oyalari bilan birga Sharq motivini anglab yetishini tavsiya qilishimiz mumkin.

Kirish

Prezidentimiz Islom Karimovning “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli kitobida ta'kidlaganidek, ...xalqlarning hammasini birlashtirish uchun, ularning bir oila a'zolari kabi inoq va hamjihat bo'lishlarida rus tili muhim vosita hisoblanadi. Bu til boshqa biror millat tilining nufuzini kamsitmagan, o'sha millat g'ururiga tegmagan holda yagona oilaga birlashgan xalqlar taraqqiyotiga, turli millatlarga mansub kishilar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishga, qo'yilgan maqsadlarga erishishga bebaho yordam berishi mumkin¹.

Yana shuni ham aytish kerakki, zamonaviy fan taraqqiyotining asosiy yo'nalishi jahon miqyosiga chiqqan tillarni, ayniqsa, ilg'or texnikaviy tafakkur ifodalanayotgan tillarni bilishni taqozo etadi. Biz ingliz, fransuz, nemis, ispan tillarini va boshqa tillarni o'rganishni butun choralar bilan rag'batlantirishimiz lozim²

Bugungi o'zbek tili xalqaro tillar terminlari bilan boyib bormoqda.

Qadim zamonlardan boshlab to hozirgi kunlargacha tarjimonlar g'oyat muhim vazifaga doim kamarbasta. Ular madaniyatlarni bir-biriga bog'lashdek qutlug' maqsadga xizmat qiladilar. Xalqlarning ma'naviy tarafdin bir-birlarini boyitishlari evaziga tsivilizatsiya qaror topadi. Binobarin, ilg'or qarashlar, kishilarning erkinligi, tengligi, qardoshligi g'oyalarini tarqatuvchilar sanalmish tarjimonlarning roli bebahodir.

O'zbek xalqi jahon tsivilizatsiyasini madaniy millat atalmish buyuk xalqlar bilan bir qatorda insoniyatning ezgu orzu va istaklari aks etgan asarlardan bahramand bo'lish barobarida, uning o'zi ham jahon afkor ommasining talabi va diniga mos yuksak badiiy tafakkur namunalarini yaratib, jahon madaniyati xazinasini boyitmoqda.

G.E.Lessing ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalarining aks etishi

Nemis adabiyotining ma'rifatparvarlik davrida yetakchi o'rinni egallagan ijodkor Lessingning adabiy faoliyati ko'p qirrali va samarali bo'lgan. U iqtidorli tanqidchi, san'at

¹ Karimov.I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent – “O'zbekiston”- 2011, 68-bet

² O'sha kitob. 90-bet.

nazariyotchisi va yozuvchidir. Lessing adabiyotni hayot bilan yaqinlashtirgan, unga ijtimoiy yo'nalish bergan, uning ijtimoiy-siyosiy va xalqning ruhiy feodal krepostnoylikdan ozodligining vositasiga aylantirdi. N. G. Chernishevski Lessing haqida yozib, unga quyidagicha baho beradi: "Lessing o'z vatanini jonlantirishni tarixiy zarurat deb bilgan arboblarning birinchi va asosiy vakilidir. U yangi nemis adabiyotining otasi edi. Undan keyingi asosiy, ahamiyatli nemis yozuvchilaridan ko'pchiligi, hatto Shiller va hattoki Gyote ham o'z faoliyatlarining eng yaxshi davrida ham Lessingning shogirdlaridir".

Lessing jangovar, inqilobiy ma'rifatparvar edi. Uning ijodi ruhiy, milliy, xalqchil bo'lgan, bu ijod nemis millati uchun muhim masalalarni qo'ygan.

Lessing Saksoniyada tug'ilgan. Yelkasida katta oila tashvishi bo'lgan. Otasi rohib bo'lib, kamtarin turmush kechirgan. U maktabda lotin va yunon tillarini o'rgangan, keyinchalik antik davrni atroflicha bilgan, antik va hozirgi zamon filologiyasi bo'yicha keng qamrovli bilimlari bilan zamondoshlarining izzat-ikromiga sazovor bo'lgan olim bo'lib yetishgan.

1746 yili Lessing otasi maslahatiga ko'ra Laypsig universitetining teologiya fakultetiga o'qishga kiradi. Ammo kelajakda pastor bo'lish imkoniyati uni uncha qiziqtirmas, o'smirning qiziqishlari-yu iqtidorini boshqa narsalar band etgan edi. Xuddi o'sha paytda Laypsigda Karolina Noyber rahbarligidagi sayyor aktyorlar guruhi gastrolga keladi. Lessingni teatr hayoti qiziqtirib qo'yadi. Keyinchalik u artistlik muhitining o'z odamiga aylanadi. Teatrda o'z imkoniyatini turli rollar ijrosi va dramaturg sifatida sinab ko'radi.

Lessing 1748 yilda Prussiya (hozirgi Germaniya Federativ Respublikasi) poytaxti - Berlinga ko'chib o'tadi. Berlin hayoti (1748-1760) uni peshqadam estetik g'oyalarni targ'ib va himoya qiluvchi kishi sifatida shakllantiradi. Bu davrda u "Nemis imtiyozli gazetasi" ("Deutsche privilegierte Zeitung") da adabiy taqrizchi bo'lib ishlaydi va Germaniyaning birinchi professional tanqidchisi sifatida taniladi.

Lessingning tanqidchilik faoliyati 50-yillarda berlinlik kitobfurush Nikolay, faylasuf-ma'rifatparvar Mendelson bilan hamkorlikda chop etgan jurnal "Eng yangi adabiyot haqidagi xatlar" ("Briefe, die neueste Literatur betreffen", 1759-1765) da shakllandi. Bu davrda u ko'plab she'rlar, masallar, shuningdek, ilk tragediyasi "Oyimqiz Sara Sampson" ("Miss Sara Sampson") ni 1755 yilda yozgan. 1760-1765 yillarda Lessing Berlindan Breslauga Sileziya gubernatorining kotibi bo'lib ishlash uchun ko'chib o'tadi. Bu davr favqulodda sermahsul bo'lib, u bu yerda ma'rifatparvarlik realizmining asosiy tamoyillarini nazariy jihatdan asoslagan "Laokoon" ("Laokoon oder Grenzen der Malerei und Poesie", 1766) asarini nihoyasiga yetkazdi. "Minna fon Barnhelm" ("Minna von Barnhelm", 1767) realistik komediyasi ham muallifning nemis jamiyati hayotini kuzatishining natijasi o'laroq dunyoga keldi.

1765 yilda Lessing yana Berlinga qaytib keladi va ikki yilcha shu yerda erkin ijod bilan shug'ullanadi. 1765 yilda Hamburg (Germaniya)da birinchi muqim teatrda asos solinadi va Lessing teatrda teatr tanqidchisi sifatida taklif etiladi. Uning vazifasiga teatr repertuariga baho berish, aktiyorlar ijrosini baholash kirar edi. Lessingning ko'p sonli teatr taqrizlari "Hamburg Dramaturgiyasi" ("Hamburgische Dramaturgie" 1767-1768), "Laokoon" ("Laokoon oder Grenzen der Malerei und Poesie", 1766) dan keyingi nazariy risolasi edi.

1770 yili Hamburg teatri yopilgach, Braun Shvayg gersogligidagi Volfenbyuttel shahriga kelib gersogning boy kutubxonasiga mudirlik qiladi. Bu yerda u 1772 yili birinchi nemis ijtimoiy dramasi "Emilya Galotti"ni nihoyasiga yetkazadi. Gumanizm g'oyalarining himoyasiga bag'ishlangan falsafiy risolasi "Inson zotini tarbiyalash" ("Erziehung des Menschengeschlechts, 1780") asari ham o'quvchilar hurmat va e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Lessingning fan va adabiyot oldidagi xizmatlaridan biri shuki, u nemis adabiyotiga ijtimoiy isyon ruhini olib kirdi.

Lessing adabiyotga demokratcha fikrlovchi yozuvchi sifatida kirgan. Uning demokratga moyilligi 50 yil o'rtalariga kelib kuchaydi va u o'z oldiga xalqqa tushunarli va yaqin bo'lgan komediya va tragediyalar yozishni maqsad qilib qo'ydi. Lessing tragediya janrini isloh qilishga intiladi. Uning fikricha chinakkam san'at insonni hayratlantirish, sahnaga xalq muhitidan chiqqan ijobiy xislatlarga ega qahramonni olib chiqish va xalqqa yaqin situatsiyalarda harakat qilmog'i lozim O'shanda tragik personaj tomoshabinda achinish, iztirob hislarini uyg'otishi mumkin.

Lessingning dramaturgik o'ylari "Oyimqiz Sara Sampson" ("Miss Sara Sampson") da o'z ifodasini topgan.

Didroning "Asrandi o'g'il" asaridan ikki yil avval yozilgan bu pyesa Yevropa mintaqasida yaratilgan meshchanlik dramasi edi. Lessing "Oyimqiz Sara Sampson" ("Miss Sara Sampson") asari bilan Germaniyada keng shuhrat qozonadi va uning nomi xorijga ham tarqaladi.

60 yillarda Lessing san'at nazariyotchisi sifatida katta obro' topadi. 1759-1765 yillar davomida Germaniya ma'rifatparvarligining ko'zga ko'ringan arbobi, kitobfurush do'sti Nikolay bilan hamkorlikda "Eng yangi adabiyot haqida maktublar" ("Briefe, die neueste Literatur betreffen") nomli jurnal nashr etadi. Hamfikir ikki do'st Gotshed asarlarining "astar avrasini ag'darib" tashlaydilar va fransuz klassisizmini Germaniya uchun zarali deb e'lon qiladilar. Dramaturglar uchun Kornel va Rasin asarlari emas, balki Shekspir pyesalari namuna bo'lib xizmat qilishi kerak, deydi Lessing.

1765 yili tasviriy san'at bilan poeziya orasidagi chegara masalasiga bag'ishlangan "Laokoon" nomli risolasini chop ettiradi. 1767-1768 yillarda u ma'rifatparvarlik davridagi eng yirik nazariy ish – "Hamburg Dramaturgiyasi" ("Hamburgische Dramaturgie") asarini yaratadi.

“Hamburg Dramaturgiyasi” (“Hamburgische Dramaturgie”) Lessing endigina tuzilgan birinchi teatr adabiy emakdosh bo’lib kelgach, yil davomida shu teatr spektakllariga yozilgan jurnal maqolalari majmui tarzida paydo bo’ldi. “Hamburg Dramaturgiyasi” (“Hamburgische Dramaturgie”) bu avvaldan o’ylangan, rejali risola bo’lmay, balki jonli taasurot asosida tug’ilib yaxlit xolida nazariy qimmatini yuqori asardir.

Lessing asarni teatr repertuari va aktiyor o’yinini tahlil etishdan boshlagan. Biroq uning aktyor o’yini haqidagi mulohazalari ko’plab noroziliklarga sabab bo’ladi. Keyin Lessing aktyorlar haqida so’z ochmaslikka va’da beradi, lekin u qilar ishni qilib bo’lgan edi.

Lessing ham Didro duch kelgan muammoga duch keladi: Qaysi toifadagi aktyorlar afzal-hissiyotli aktyormi yoki “sovuqqon” aktyor? Bu masalada Lessingning mulohazasi Didroning javobiga qaraganda ma’rifatparvarlik realizmi ruhiga yaqinroqdir. U hissiyot bilan aql-zakovat tarafdori. Uning fikricha, bu ikki jihatning qaysi birinidir ustun qo’yish o’rinsizdir. U klassisizmga xos sovuqqonlikka ham, maishiy izohchilikka ham cho’chib qaraydi. Aqli raso aktyor asarning u yoki bu lavhasining nimaligini aniqlaboq, o’z-o’zidan hissiyot ta’siriga beriladi.

Ayni zamonda Lessing ham Didro singari “hissiyotli” aktyorga ishonchsizlik bilan qaraydi. Hissiyot “qandaydir botiniy, ichki narsa, bu haqda uning tashqi ko’rinishi orqaligina fikr yuritish mumkin” deydi u; demak, his-tuyg’uni zohiran, sirdan namoyon etuvchi aktyor “beshavq, sovuqqon bo’lishidan qat’iy nazar, sahna uchun birinchi toifa aktyordan foydaliroqdir”. Bundan tashqari, aktyorlik texnikasining o’zi ham aktyorda sahna san’ati uchun zarur his-tuyg’u hosil qilish omili hamdir, deb hisoblaydi Lessing. Kitobning talay qismi dramaturgiyaga bag’ishlangan bo’lib, Lessing bu o’rinda 1759 yili “Eng yangi adabiyot haqida maktublar” (“Briefe, die neueste Literatur betreffen”) da boshlangan klassisizm haqidagi musohabani davom ettiradi.

Lessing klassisizmning hech qanday tur va shaklini qabul qilmaydi. U Kornel va Rasinnigina emas, o’z g’oyaviy tamoyiliga ko’ra ularga yaqin turuvchi ma’rifatparvar Volturning ham ijodiy nufuzini tan olmaydi. Uning nazarida klassisizm shunchaki o’rnini zamonaviylikka bo’shatib berishi lozim bo’lgan, o’rni o’tgan uslubgina emas. Klassisizm, umuman, san’at tabiatiga ziddir, deb hisoblaydi Lessing.

Haqiqiy san’at insondan boshlanishi kerak, - deya xitob qiladi Lessing – klassisizm estetikasi esa saroy taomillariga asoslangan. “Saroy mutlaqo shoir tabiatini o’rganishi mumkin bo’lgan joy emas, - deya davom etadi u, - saroyning udumi, dabdabasi odamlarni mashinaga aylantirib qo’ysa, shoir bu mashinalarni yana odamga aylantirishi kerak”.

Shu zaylda drama nazariyasi Lessing faoliyatida insonni himoya qilish, shaxs erkinligi uchun kurash maydoniga aylanadi. Shaxs erkinligi toptalgan Germaniya sharoitida jiddiy siyosiy

vazifa edi. Ekinlik yo'lida kurashmoq uchun nemis xalqining keng tabaqalari doirasida avvalo erkinlikka ehtiyoj uyg'otish talab etilardi.

Lessing nazariya sohasidagi kabi dramaturgiya sohasida ham erkin va barkamol shaxs uchun kurash olib bordi. Uning san'ati shu jihatning o'zi bilanoq istibdodning har qanday ko'rinishiga qarshi qaratilgan san'at edi. Qisman shundan ham uning peysalari janriga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin.

Lessing barcha janrlarda namunaviy peysalar yaratdiki, keyinroq uning davomchilari bu janrlarni rivojlantirdilar. Uning har bir asarining sahnaviy ohangi bor, har biri tomoshabinda ma'lum his tuyg'u qo'zg'aydi: "Oyimqiz Sara Sampson" ("Miss Sara Sampson") ko'z yoshi uyg'otsa, "Minna fon Barnhelm" ("Minna von Barnhelm") kuldiradi, ruhiy orom baxsh etadi; "Emiliya Galotti" ("Emilia Galotti") ko'ngilni musibat olamiga g'arq etsa, "Donishmand Natan" ("Nathan der Weise") chuqur o'yga toldiradi.

Tabiiyki, Lessing klassisizmdan butunlay qutula olmaydi. Umuman, nemis ma'rifatparvarlik san'atida klassisizm, qandaydir yo'sinda o'z izini qoldirdi. Lekin zamondoshlari orasida eski san'at aqidalaridan uzoqlashgan kishi Lessing edi.

Lessing boshqa aqidalar yaratish niyatida klassisizm aqidasiqa qarshi kurashgani yo'q. U dramaturg sifatida o'z didi va badiiy imkoniyatlari naqadar kengligini namoyish etdi. Uning pyesalarini tomshabinlar hamisha ham muvaffaqiyat bilan qabul qilmagan bo'lsalarda, bu asarlar nemis adabiyoti tarixida muhim o'rin egalladi.

Dramaturg "Oyimqiz Sara Sampson" ("Miss Sara Sampson") asarini ingliz namunalariga, xususan Lilloning "London savdogari" pyesasiga taqlidan yozgan. Lessingni erkin hissiyotlar qiziqtirgan edi. Lessing XVIII asr nemislari uchun erkin fuqarolik yurti namunasi bo'lgani uchun ham shu zamin badiiy manbai va qahramonlariga qayta jon ato etgan edi. Pyesada ikki mashuqa orasida gangib qolgan aslzoda Melefontning taqdiri haqida hikoya qilinadi. Uning birinchi mashuqasi Mavrid xonimdan qizi bo'lsa, ikkinchisi Sara Sampson esa endigina uning tuzog'iga ilingan jabrdiyda qiz. Pyesa oxirida Mavrid Sara Sampsonni zaharlab o'ldiradi. Melefont esa qizning jasadi tepasida o'zini-o'zi nobud qiladi.

Lessing "Minna fon Barnhelm yoki Sarbozning baxti" ("Minna von Barnhelm oder das Soldatenglück", 1767) komediyasiga qahramonlarni Germaniyadagi harbiy muhitdan izlab topadi.

Lessing Breslavl shahrida do'sti Tauyensin qo'lida 1760-1765 yillari gubernator kotibi bo'lib ishlaydi. Yetti yillik umumyevropa urushidan keyin shu yerda, 1763 yili komediya ustida ish boshlaydi. Asarga aynan shu davrda yuz bergan voqealar asos qilib olingan.

Komediyaning dastlabki ikki pardasini Gyote ekspozitsiya nuqtai nazaridan namunali deb hisoblagan. Lekin yaxlit holda ham uni namunali komediya ham deyish mumkin. Lessing pyesa g'oyasini qahramonlarning xulq-atvori orqali ifoda etgan.

1772 yili Lessing 15 yil oldin rejalashtirgan "Emiliya Galotti" ("Emilia Galotti") fojeasini yozib tugatadi. Asar voqeasi Italiyada o'tadi. Maqsadga muvofiq usul topilgan edi. Italiya siyosiy jihatdan Germaniyani eslatardi. Bu mamakat ham ko'pdan-ko'p mayda knyazliklarga bo'linib ketgan mamlakat edi. Kuchli ehtirolarning jo'sh urushi ham bu mamlakat misolida tabiiyroq tuyulardi.

Gyote "Emiliya Galotti"ni "adolatning mustabid beboshlikka qarshi keskin huruji" deb ta'riflagan edi. Bu ma'rifatparvarlik davrida Germaniyada jabr-zulmga qarshi qaratilgan birinchi dramadir. Shunisi diqqatga loyiq-ki, pyesa qahramoni, voqea yuz bergan knyazlikning hukmdori, shahzoda Xettore Gonzaga yovuz kishi sifatida ko'rsatilgan emas. U "o'ziga xos ma'rifatli hukmdor" tarzida ko'rinadi. Lessing uning tilida hatto o'zining san'at haqidagi ba'zi fikrlarini ham jo qilgan. U kuchli ehtirolardan mahrum emas, polkovnik Odoardoning qizi, graf Appianining sevgilisi Emiliyani chindan ham sevadi. U zo'rlik vositasini ishga solmay, o'zini munosib jazzman sifatida tutishga ham tayyor.

Lekin bu bilan Lessing pyesaga yorqinroq tus beradi, xolos. Muallif u yoki bu mustabidning zulmkorligini emas, balki har qanday yakka hokimlik, hatto Volter xayrxohlik bildirgan "ma'rifatli monarxiya" boshqaruvining ham noinsoniyligini ko'rsatib beradi. Shahzodaning niyati qanchayin beg'araz bo'lmasin, uni hokimiyat yo'ldan ozdiradi, u o'zgalarning qo'li bilan yovuzlikka qo'l uradi. U Appianni o'ldiradi, Emiliyani o'zini-o'zi nobud qilishga olib keladi. Jabrdiyda qiz yovuzlikka qarshi noroziligi va insoniylik sha'nini shu o'lim bilan tasdiq etadi. U o'zini o'ldirishga jur'at etolmaydi, uning iltijosiga ko'ra bu ishni uning otasi ado etadi.

Lessing 1770 yildan gersog Braunshveyg xizmatida bo'lib, Volfenbyuttelda yashagan davrida "Emiliya Galotti" asri sahnaga qo'yiladi. Lessing o'z asarini sahnabopligiga uncha ishongan emas edi. Spektaklning unchalik muvaffaqiyatli chiqmagani buni isbotlaydi. U bundan keyin sahna uchun yozmaslikka ahd qiladi. Lekin bir necha yillardan so'ng sharoit uni bu ahddan voz kechishga undaydi.

Lessing o'sha paytda Gytose degan ruhoniyl bilan ilohiyot xususida munozara qilib qoladi. Graf Braunshveyg vositachiligida ruhoniyl bilan Lessing o'rtasidagi munozara to'xtatiladi. Lessingdan uning haqiqat uchun kurash huquqini tortib olmoqchi bo'lishadi. Shunda u yana o'zining sinashta minbari – teatrga qaytadi. uning "Donishmand Natan" ("Nathan der Weise", 1779) nomli so'nggi pyesasi shu zaylda dunyoga keldi.

Lessing “Donishmand Natan” (“Nathan der Weise”) pyesasida o’zi avval olg’a surgan ba’zi qoidalardan chekinadi. Bu pyesa o’z shakliga ko’ra, muallifning ma’rifiy falsafiy dramaga qaytganini ko’rsatadi. Pyesa sharofati va teran insoniy obrazlarga boyligi bilan sahnadan mustahkam o’rin egalladi. “Donishmand Natan” (“Nathan der Weise”) asari 1801 yili Veymar sahnasida qo’yilganda, Gyote unda “aks etgan sabr-toqat, armon, afsus va nadomat tuyg’ulari xalqlar qalbida muqaddas tuyg’ular bo’lib qolgusidir”, deb yozgan edi.

Lessing o’z pyesasining 1779 yili nashr etilgan nusxasini ko’rishga ulgurdi xolos. Asar muallif vafotidan uch yil o’tgandan keyin sahna yuzini ko’rdi.

Mashhur nemis ma’rifatparvari Gottxold Efraim Lessing “Donishmand Natan” (“Nathan der Weise”, 1779) dramasiidagi voqealar XII asr salb yurishlar tarixidan yozilgan bo’lib, adabiyotshunoslar uni “g’oyaviy drama” deb ataydilar. Sababi, dramada o’rta asrlarda o’zaro kurash olib brogan uch din _ yahudiy, nasroniy va islom dinining g’oyaviy kurashi aks ettiriladi. Muallif bu dinlar o’rtasidagi umumbashariy jihatlarni ta’riflash bilan birga, g’ayriinsoniy fazilatlarini qoralaydi, din peshvolarini o’zaro hamjihatlikka chaqiradi, millatlar va ellatlarning qaysi dinga mansub bo’lmasin, bir-birini hurmat qilishga, qadrlashga da’vat etadi. Asosiysi, asarda tolerantlik g’oyasi ilgari suriladi.

I bob.

G.E.Lessingning “Donishmand Natan” dramasi yozilishiga doir

XVII asrning oxirlarida nasroniy dini mavjud bo'lgan Yevropa Sharq madaniyatiga nisbatan ilgarilab ketgandi. Nasroniy diniga e'tiqod qilish bo'yicha tanqidiy qarashlar marifatparvar faylasuflarni sharq madaniyatini katta ishtiyoq bilan qabul qilishga chorladi. Buning isboti sifatida Volterning (1751 yilda Lessing tomonidan nemis tiliga tarjima qilingan) “Salb yurishlari tarixi” nomli esseni misol keltirish mumkin. Bu asarda Volter Salohiddinga shunday ta'rif bergan:

Ikkinchi salb yurishidan (1147-1149) so'ng Osiyodagi nasroniylar o'rtasida o'zaro bir-birlari bilan kelishmovchiliklar kelib chiqq boshlagan. Bu vaqtda musulmonlar hukmronligi kuchli edi. Din masalasidan boshqa siyosiy masalalarga hech kim aralashmay qo'ygan edi.

Notinchlik keskin avj olgan paytlarda Xalif sultoni Noradinning jiyani Salohiddin paydo bo'ldi. Salohiddin Suriya, Arabiston, Fors ko'rfazi va Mesopotamiyani ishg'ol qildi.

Meliy ismli rohib Salohiddinning qo'l ostida xizmat qilish uchun o'zining dinidan ham voz kechgan va unga Armanistonni ishg'ol qilishda yordam bergandi. Quddus qirolligini o'zida qolishni istamagan. Bir-biriga g'azab uyg'otgan ikki partiya bu kichik davlatni to'zg'itib yubordi. Taxt ustida talashgan qirol Gvido fon Lusignan tarqalib ketgan barcha nasroniylarni Galliyada yig'ib, Salohiddinga qarshi kurashga chorlagan. Egnida sovut, boshida jangovor bosh kiyim va ko'kragida krest belgisini taqib olgan Ptolemaida episkopi jangdagi qo'shinni qancha oldinga chorlamasin, nasroniy askarlarining ayrimlari jangda halok bo'lishdi, ayrimlari esa asirga tushishdi. Shunda episkop o'zini himoya qilishga ko'zi yetmay, Sulton Salohiddin huzuriga kelgan va shaharni o'z xohishi bilan Salohiddinga topshirgan. Bundan gumonsiragan Sulton Salohiddin uning maqsadini so'raydi. Shaharda qashshoqlashib qolgan Lusignan

greklardan qarz soraydi va u katoliklardan biroz miqdorda olishga erishdi xolos. Quddus shahriga tashrifida Sulton Salohiddinning oyoqlari ostiga xotin-xalajlardan kimdir asir bo'lgan erlarini, kimdir bolalarini, kimdir otalarini qaytarib berishini so'rab, uning oyoqlari ostiga o'zlarini tashlashdi. Salohiddin cherkovlarga aylantirilgan masjidlarga nasroniylar o'z qo'llari bilan mushki-anbar sepishlarini buyurgandi. U 1187 yilda tog'asi – Xalifning sultoni Noradin faoliyat olib borgan binoni o'ziga qayta jihozlab oldi.

U Islom dini e'tiqodi uchun qilgan barcha ezgu ishlariga qaramasdan, ayrim masjidlarni ham nasroniylarga berib yuborgandi.

Bir yildan so'ng Salohiddin Gvido fon Lusignan va uning qo'shinlarini ham ozod qilib yubordi. Gvido fon Lusignan boshqa qo'lga qurol ushlamaslik va jang qilmaslikka Salohiddinga soz beradi. Lekin vaqt o'tib Lusignan so'zida turmaydi.

Bu orada nasroniylar Osiyoning Antiochia, Tripoli, Joppe va Tirren dengizi bo'yidagi Tir shahrini egallashdi. Salohiddin o'zi va kuyovi tomonidan egallangan Kogni va Ikonium (hozirgi Karamaniya deb ataluvchi) davlatlarni boshqarar edi. Salohiddinning g'alabasini eshitgan butun Evropa tashvishda qoldi. Bu vaqtda Papa Clemens III Fransiya, Angliya va Germaniyani jangga chorlagan edi. Kichik Osiyo esa jar yoqasida qoldi. Bu jangda nafaqat qirol Fridrixning kuchli armiyasi, balki ingliz, fransuz, italyan va nemis qo'shinlari askarlari ham halok bo'lishdi. Filipp Avgust va Sheryurak Richardni kutib olish oldidan yangi salb yurushi qatnashchilari va yangi qurbonlar olib keltirildi. Nihoyat Franziya va Angliya qirollari ham Suriyaga etib kelishdi. Deyarli barcha sharq mamlakatlaridagi nasroniylar Quddus shahrini qamal qilish uchun yig'ilishdi. Salohiddin Furot daryosi bo'yida urush ichkarisida dushmanlarni chalg'itib turdi. Shundan so'ng ikkala qirol o'zining qo'shin askarlarini sharq mamlakatlaridagi nasroniylar bilan birlashtirib, 300 ming askar qo'shinga ega bo'ldi. 1190 yilda Akka shahri ishg'ol qilindi. Ikki qirol Filipp va Richard o'rtasidagi kelishmovchilik ularning bir-biridan ajralishga va qo'shinlarining azob-uqubatga duchor bo'lishga sabab bo'ldi.

Richard bilan sulh tuzgan Sulton Salohiddin nasroniylarni Tir shahridan Joppega dengiz orqali o'tishda yordam bergan.

Sulton Salohiddinning to'liq ismi – Sulton Malik al-Nazir Salohiddin Amir al Mo'min Abul Muzaffar Yusuf bin Ayub bin Shodi edi.

Salohiddin musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni Karimdan xabari bor edi. U ko'pgina shaharlarda masjidlar, maktablar, kasalxonalar qurdirgan. Qariya va yetimlarga g'amxo'rlik qilgan. U juda adolatparvar inson edi. U haftaning dushanba va payshanba kunlari mahkamasida qozilarni qabul qilar edi. Haftaning boshqa kunlarida esa iltimos va da'vo arizasi bilan kelganlarni hamda elchilarni qabul qilar, shu zahoti kechiktirmasdan ularning talabi qondiriladi. Mansabidan, yoshidan, millatidan va dinidan qat'iy nazar barcha kishilar hoh u

musulmon, hoh u nasroniy, hoh u oddiy fuqaro yoki boy bo'lsin uning qabuliga kirish huquqi teng edi.

Sulton Salohiddinning saxovatpeshaligi shunda ediki, u odamlarga hech qachon xiyonat qilmasdi. Bu olijanoblikning yuksakligi barcha razilliklarni yengib o'tar edi. Uning qalbida birovga na nafrat, na o'ch bor edi. Ga'yridinlik va g'ayriinsoniylik unga yot edi. Salohiddinning sof ko'ngilligi, insoniyligi, diniga e'tiqodi kuchliligi, adolatparvarligi kabi fazilatlar uning shaxsini namoyon etardi.

Sulton Salohiddin 12 kun davomida to'shakda mixlanib, haftaning chorshanba kuni, o'ning 27 sanasida, arab hisobidagi yilning 2 oyi, hijriy yilning 589, yangi davrning 1193 yil fevral oyida vafot etgan. U tog'asi Xalifning o'limidan so'ng 22 yil Misrni, 19 yil Suriyani boshqargan edi.

Drama tarixiy sahna ekanligini ma'rifatparvarlik davri orqali bilishimiz mumkin. Mashhur ma'rifatparvarlar: Gotfrid Vilxelm Leybnist (1646-1716), Tomasuis (1655-1718), Xristian Volf (1679-1754), Immanuil Kant (1724-1804). Aql-idrok g'oyasi tabiatshunoslik, siyosat va adabiyot sohalarida ifodalangan.

Evropada burjuaziyaning o'sishiga sabab savdo-sotiqning jadal rivojlanishi edi. Bu iqtisodiy liberalizmning ilk asoschisi Adam Smit (1723-1790) edi. 1765 yilda Yams Batt tomonidan bug' mashinasining ixtiro qilinishi XVIII asrda Angliyada, shu bilan birga qit'ada ham o'rin egallagan sanoat o'sishini jadallashtirdi.

Samuel fon Kokkeji (1679-1755) siyosiy islohotni boshqardi va shu bilan birga Prussiyani polistiya davlatidan siyosiy davlatga aylantirishga asos soldi. Fridrix II (1740-1786) juda dono va aqlli hukmdor sifatida tasvirlangan. U "davlatning birinchi xizmatchisi" deb e'tirof etilgan. Prussiya ikkita Sileziya qo'zg'olonlari (1740-17423 va 1744-1745) va eti yillik urush (1756-1763)dan so'ng o'z mavqeyini tiklab oldi.

Ma'rifatparvarlikni targ'ib qilgan kishilik huquqi 13 ta (4 iyul 1776 yil) Qo'shma Shtatni mustaqil deb e'lon qilganda o'zining o'rnini topdi. 1775 yilda Amerika o'zining mustaqillik uchun kurashini boshlagan edi. 1783 yilda Buyuk Britaniya Versal tinchligi konferensiyasida mustaqilligini e'lon qildi. Evropada odamlar va byurgerlar huquqlariga hamda hukumat boshqaruviga ko'ra talablar quyilib kela boshlagan. Shunda 1789 yil fransuz reformastiya (inqilobi) davri boshlandi. Ular Evropa qit'asining boshqa mamlakatlaridagi siyosiy taraqqiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatib keldi.

"Donishmand Natan" dramasidagi "uch uzuk haqidagi rivoyat" italyan yozuvchisi Jovanni Bokkachchoning "Dekameron" asaridan olingan. Bu rivoyatni Lessing butunlay ko'chrib olmagan. Undagi voqealar keragicha sahnaga moslashtirilgan, ilmiy-tahliliy tafsilotlar

bilan boyitilgan va tarixiy shaxslar tiliga o'zlashtirilgan. Shu bilan birga sermazmun va ishonchli dalillar orqali xurofiy qarashlarni ham ifodalay olgan.

Uch uzuk tarixi

Uch dinning majoziy ma'noda uch uzuk misolida berilishi qadimgi o'rta asrlar tarixiy manbalariga asoslangan. Bu qadimgi ilk rivoyat dominikanlik tarixchi Etienne de Bourbonning (1261 yilda vafot etgan) "Rivoyatlar to'plami", nasroniy diniga tegishli haqiqiy uzuk tasvirlangan "Anecdotes Historique, Legendes et Apoloques (ed. Albert Lecoy de la Marche, Paris 1877, S. 281)" asarlarida ham o'z aksini topgan.

Shunga o'xshash rivoyat yana 1270-1294 yillarda bitilgan «Haqiqiy uzuk» (Dit dou vrai aniel) nomli qadimgi fransuz epik hikoyasida ham bayon etilgan. Yana boshqa bir ifoda esa yahudiy Rabbi Solomon Ibn Verga o'zining Schebet Jehuda (1840) kitobida qadimgi yahudiycha anekdot sifatida uzuk haqida bayon qilgan. U xuddi donishmand Natanga berilgan savolni qirol Don Pedro tomonidan donishmand yahudiyga berilishi haqida hikoya qilinadi. Bu hikoyada ikki aka-uka otasidan meros qolgan ikki uzukdan qay biri haqiqiyligini aniqlash maqsadida dono qirolga murojaat qilgan.

Volfenbyuttel kutubxonasidagi lotin yozuvida bitilgan qo'lozma va qadimgi nemis adabiyoti manbalari Lessing uchun ancha qo'l keldi. Lessing nasroniylarning XIV asrga tegishli mashhur ertak va afsonalar to'plamlarida ifodalangan «Gesta Romanorum» rivoyatidan ham foydalangan. Lessing «Donishmand Natan» dramasi to'g'ridan-to'g'ri ifodalagan badiiy manba – «uch uzuk haqidagi Jovanni Bokkachchoning «Dekameron» asari birinchi kun uchinchi novellasidan :

Der Jude Melchisedech wendet mit der geschichte von den drei Ringen eine große Gefahr von sich ab, die ihm von Saladin drohte.³

Еврей Мельхиседек рассказом о трех перстнях устраняет большую опасность, уготованную ему Саладином.⁴

Yahudiy Melxisedek uch uzuk haqidagi hikoyasi bilan o'ziga qarshi Salohiddin tomonidan qo'yilgan eng xatarli domni bartaraf qiladi.⁵

“Natan” obrazini esa “Dekameron”ning o'ninchi kun uchinchi novellasidan olgan:

Mitbridanes, der neidisch die Wohltätigkeit des Nathan erkennt, beschließt, jenen zu töten. Ohne ihn zu kennen, trifft er mit ihm zusammen und erfährt von ihm selbst, auf welche

³ Giovanni Boccaccio. Dekameron. Übersetzung aus dem italienischen von Ruth Macchi. Aufbau-Verlag Berlin und Weimar 1982, S. 49.

⁴ Джованни Боккаччо. Декамерон. Перевод с итальянского А.Н.Веселовского. Ташкент 1991, стр.36.

⁵ Жованни Боккаччо. Декамерон. Қодир Мирмухаммедов таржимаси. Ғ.Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент-1979, 43-бет.

Art er ihn umbringen kann. Wie besprochen, findet er Nathan in einem kleinen Wald. Als er voller Beschämung den anderen erkennt, wird er sein Freund.⁶

Митридан, завидуя щедрости Натана, отправляется его убить, встречается его, неузнанного, и, разведав у него самого, каким способом это сделать, находит его в роще, как и было уговорено. Признав его, ощущает стыд и становится его другом.⁷

Natanning saxiyligiga hasad qilgan Mitridan, uni o'ldirgani yurtiga boradi; u Natanni uchratadi-yu, lekin tanimaydi va o'z niyatini qanday qilib yaxshiroq bajarish to'g'risida Natanning o'zidan maslahat oladi, keyin Natanning maslahatiga ko'ra, u bilan daraxtzorda uchrashadi; Mitridan nihoyat shu yerda Natanni tanib qolib, vijdon azobida qiynaladi; oqibatda u Natan bilan do'st tutinadi.⁸

XVII asrning oxirlarida nasroniy dini mavjud bo'lgan Yevropa sharq madaniyatiga nisbatan ilgari ketgandi. Nasroniy diniga e'tiqod qilish bo'yicha tanqidiy qarashlar marifatparvar faylasuflarni sharq madaniyatini katta ishtiyoq bilan qabul qilishga chorladi. Buning isboti sifatida Volterning (1751 yilda Lessing tomonidan nemis tiliga tarjima qilingan) "Salb yurishlari tarixi" nomli essesini misol keltirish mumkin. Bu asarda Volter Salohiddinga shunday ta'rif bergan:

Ikkinchi salb yurishidan (1147-1149) so'ng Osiyodagi nasroniylar o'rtasida o'zaro birlari bilan kelishmovchiliklar kelib chiqqa boshlagan. Bu vaqtda musulmonlar hukmronligi kuchli edi. Din masalasidan boshqa siyosiy masalalarga hech kim aralashmay qo'ygan edi.

Notinchlik keskin avj olgan paytlarda Xalif sultoni Noradinning jiyani Salohiddin paydo bo'ldi. Salohiddin Suriya, Arabiston, Fors ko'rfazi va Mesopotamiyani ishg'ol qildi.

Meliyo ismli rohib Salohiddinning qo'l ostida xizmat qilish uchun o'zining dinidan ham voz kechgan va unga Armanistonni ishg'ol qilishda yordam bergandi. Quddus qirolligini o'zida qolishni istamagan. Bir-biriga g'azab uyg'otgan ikki partiya bu kichik davlatni to'zg'itib yubordi. Taxt ustida talashgan qirol Gvido fon Lusignan tarqalib ketgan barcha nasroniylarni Galliyada yig'ib, Salohiddinga qarshi kurashga chorlagan. Egnida sovut, boshida jangovor bosh kiyim va ko'ragida krest belgisini taqib olgan Ptolemaida episkopi jangdagi qo'shinni qancha oldinga chorlamasin, nasroniy askarlarining ayrimlari jangda halok bo'lishdi, ayrimlari esa asirga tushishdi. Shunda episkop o'zini himoya qilishga ko'zi etmay, Sulton Salohiddin huzuriga kelgan va shaharni o'z xohishi bilan Salohiddinga topshirgan. Bundan gumonsiragan Sulton Salohiddin uning maqsadini so'raydi. Shaharda qashshoqlashib qolgan Lusignan greklardan qarz soraydi va u katoliklardan biroz miqdoarda olishga erishdi xolos. Quddus shahriga tashrifida

⁶ Ebenda, S. 729.

⁷ Здесь, стр. 215.

⁸ O'sha kitobda, 586-bet.

Sulton Salohiddinning oyoqlari ostiga xotin-xalajlardan kimdir asir bo'lgan erlarini, kimdir bolalarini, kimdir otalarini qaytarib berishini so'rab, uning oyoqlari ostiga o'zlarini tashlashdi. Salohiddin cherkovlarga aylantirilgan masjidlarga nasroniylar o'z qo'llari bilan mushki-anbar sepishlarini buyurgandi. U 1187 yilda tog'asi – Xalifning sultoni Noradin faoliyat olib borgan binoni o'ziga qayta jihozlab oldi.

U Islom dini e'tiqodi uchun qilgan barcha ezgu ishlariga qaramasdan, ayrim masjidlarni ham nasroniylarga berib yuborgandi.

Bir yildan so'ng Salohiddin Gvido fon Lusignan va uning qo'shinlarini ham ozod qilib yubordi. Gvido fon Lusignan boshqa qo'lga qurol ushlamaslik va jang qilmaslikka Salohiddinga soz beradi. Lekin vaqt o'tib Lusignan so'zida turmaydi.

Bu orada nasroniylar Osiyoning Antiochia, Tripoli, Joppe va Tirren dengizi bo'yidagi Tir shahrini egallashdi. Salohiddin o'zi va kuyovi tomonidan egallangan Kogni va Ikonium (hozirgi Karamaniya deb ataluvchi) davlatlarni boshqarar edi. Salohiddinning g'alabasini eshitgan butun Evropa tashvishda qoldi. Bu vaqtda Papa Clemens III Fransiya, Angliya va Germaniyani jangga chorlagan edi. Kichik Osiya esa jar yoqasida qoldi. Bu jangda nafaqat qirol Fridrixning kuchli armiyasi, balki ingliz, fransuz, italyan va nemis qo'shinlari askarlari ham halok bo'lishdi. Filipp Avgust va Sheryurak Richardni kutib olish oldidan yangi salb yurishui qatnashchilari va yangi qurbonlar olib keltirildi. Nihoyat Franstiya va Angliya qirollari ham Suriyaga etib kelishdi. Deyarli barcha sharq mamlakatlaridagi nasroniylar Quddus shahrini qamal qilish uchun yig'ilishdi. Salohiddin Furot daryosi bo'yida urush ichkarisida dushmanlarni chalg'itib turdi. Shundan so'ng ikkala qirol o'zining qo'shin askarlarini sharq mamlakatlaridagi nasroniylar bilan birlashtirib, 300 ming askar qo'shinga ega bo'ldi. 1190 yilda Akka shahri ishg'ol qilindi. Ikki qirol Filipp va Richard o'rtasidagi kelishmovchilik ularning bir-biridan ajralishga va qo'shinlarining azob-uqubatga duchor bo'lishga sabab bo'ldi.

Richard bilan sulh tuzgan Sulton Salohiddin nasroniylarni Tir shahridan Joppega dengiz orqali o'tishda yordam bergan.

Sulton Salohiddining to'liq ismi – Sulton Malik al-Nazir Salohiddin Amir al Mo'min Abul Muzaffar Yusuf bin Ayub bin Shodi edi.

Xulosa qilib aytganda, Salohiddin musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lmish Qur'oni Karimdan xabari bor edi. U ko'pgina shaharlarda masjidlar, maktablar, kasalxonalar qurdirgan. Qariya va yetimlarga g'amxo'rlik qilgan. U juda adolatparvar inson edi. U haftaning dushanba va payshanba kunlari mahkamasida qozilarni qabul qilar edi. Haftaning boshqa kunlarida esa iltimos va da'vo arizasi bilan kelganlarni hamda elchilarni qabul qilar, shu zahoti kechiktirmasdan ularning talabi qondiriladi edi. Mansabidan, yoshidan, millatidan va dinidan

qat'iy nazar barcha kishilar hoh u musulmon, hoh u nasroniy, hoh u oddiy fuqaro yoki boy bo'lsin uning qabuliga kirish huquqi teng edi.

Sulton Salohiddinning sahovatpeshaligi shunda ediki, u odamlarga hech qachon xiyonat qilmasdi. Bu olijanoblikning yuksakligi barcha razilliklarni yengib o'tar edi. Uning qalbida birovga na nafrat, na o'ch bor edi. Ga'yridinlik va g'ayriinsoniylik unga yot edi. Salohiddinning sof ko'ngilligi, insoniyligi, diniga e'tiqodi kuchliligi, adolatparvarligi kabi fazilatlar uning shaxsini namoyon etardi.

Sulton Salohiddin 12 kun davomida to'shakda mixlanib, haftaning chorshanba kuni, oyning 27 sanasida, arab hisobidagi yilning 2 oyi, hijriy yilning 589, yangi davrning 1193 yil fevral oyida vafot etgan. U tog'asi Xalifning o'limidan so'ng 22 yil Misrni, 19 yil Suriyani boshqargan edi.

II bob

G.E.Lessingning "Donishmand Natan" dramasi obrazlar taqini

2.1. Tarixiy shaxslar - bosh qahramonlar obrazida;

"Donishmand Natan" dramasi Lessing davridagi sof poetikaning tartib-qoidalariga juda ham mos kelar edi. Dramada bosh qahramonlar qatorida Suriya va Misr sultoni Salohiddin obrazi gavdalangan. Sulton Salohiddin hukmronligi ostida xalq ommasi bir-birlari bilan diniy konfessiya asosida birlashgan. Yahudiy Natanning uyida Salohiddin, Rexa va Dayya istiqomat qilishar edi. Bu sharoitda islom dini ustuvorligiga qaramasdan Patriarx (cherkov peshvosi) nasroniy episkopi sifatida asosiy rol o'ynaydi. U Quddus shahridagi yuqori martabali cherkov peshvosi edi. Nasroniylar guruhi tarkibiga Dayya, rohib va shogird-rohiblar kiradi.

Dramada yakka hukmdor Salohiddin, cherkov peshvosi Patriarx va boy savdogar yahudiy Natan obrazlarini uchala – musulmon, nasroniy va yahudiy din vakillari sifatida ko'rish mumkin.

Hukmdor va oddiy fuqaro, xo'jayin va xizmatkor, manmanlik va sipolik kabi qarama-qarshi munosabatlar ma'rifatparvarlik davridagi dolzarb mavzu bo'lib hisoblanar edi.

Dramaning bosh qahramoni Natan Quddus shahrida savdo-sotiq ishlarini olib borar edi. U tovar va mollarni boshqa mamlakatlardan olib kelib sotar edi.

Daja:

.... Er kömmt von Babylon.

Mit zwanzig hochbeladenen Kamelen,

Und allem, was an edeln Spezereien,
An Steinen und an Stoffen, Indien
Und Persien und Syrien, gar Sina,
Kostbares nur gewähren.⁹

Дайя:

Приехал он из Вавилона. Гору
И пряностей, и тканей, и камней
На двадцати верблюдах он привез
Из Индии, из Персии, Китая -
Всего, что ценного там отыскал.¹⁰

Даууа:

Bobildan aytdi u. Turfa shirinlik,
Tog'-tog' matolaru dur javohirni
Olib Hindistondan, Eron, Xitoydan.
Yigirmata tuya ustida yuklab,
Keltirishi, hammasi o'ynatar ko'zni.¹¹

Savdo ishlari baroridan kelgan Natan o'ta saxiy bo'lib, u o'z mablag'ini hukumatning bo'shab qolgan g'azna (kassa)sini to'ldirishga o'z hissasini qo'shishga sarf qilari edi. U sarf-harajatlar borasida o'ta puxta o'ylar, lekin xasis emas edi. Natan o'zining ezgu niyatlari va olijanoblighi, mehnatsevarlighi va sahovatpeshalighi orqali hamjihatlikni yo'lga qo'ygan edi.

Kitobxon yoki tomoshabin nasroniy diniga mansub etim qiz Rexa "asrab olingan qiz" ekanlighi va yahudiy Natan o'gay ota bo'lishiga qaramasdan g'amxo'r va mehribon inson ekanlighini quyidagi parchadan ham anglab olishi mumkin:

Nathan.

Mein Kind! mein liebes Kind!¹²

Натан

Дитя мое, любимое дитя!¹³

⁹ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-354.

¹⁰ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои, стр-146.

¹¹ Г.Э.Лессинг. Донишманд Натан. А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти,2005.22-бет.

¹² G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-332.

Natan

Bolam! Bolajonim!¹⁴

O'z oilasi nasroniylar qo'lida halok bo'lishiga qaramasdan Natan nasroniy qiz Rexani asrab olishini Patriarx shakkoklikka yo'yadi va Natanni olovda yondirib jazolash kerakligini talab qiladi:

Patriarch.

Und zwar bestimmen obbesagte Rechte
Dem Juden, welcher einen Christen zur
Apostasie verführt,--den Scheiterhaufen,
Den Holzstoß--¹⁵

Патриарх

А именно: на точном основанье
Помянутых законов, если жид
Склонит христианина к отпаденью
От веры истинной, ему назначен
Костер.¹⁶

Bosh rohib

Xususan, ularda aniq
Ta'kidlab qo'yilgan, agarda juhud
Nasroniyni o'zin asl dinidan
Qaytarmoqqa sa'i harakat qilsa,
Gulxanda yoqilgay.¹⁷

Natanning xotini va etti nafar o'gli 18 yil muqaddam nasroniylar qo'lidan qochib, Natanning akasining uyiga bekinishadi. Ularning taqdiriga uy va uy ichidagilar yonib ketadi. Bo'lib o'tgan voqeani Natan shogird-rohibga quyidagicha so'zlab beradi:

Nathan.

Ihr wißt wohl aber nicht, daß wenig Tage
Zuvor, in Gath die Christen alle Juden

¹³ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-121.

¹⁴ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.7-bet.

¹⁵ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-427.

¹⁶ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-224.

¹⁷ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.55-bet.

Mit Weib und Kind ermordet hatten; wißt
Wohl nicht, daß unter diesen meine Frau
Mit sieben hoffnungsvollen Söhnen sich
Befunden, die in meines Bruders Hause,
Zu dem ich sie geflüchtet, insgesamt
Verbrennen müssen.¹⁸

Натан

Едва ли вам известно,

Что в Гате христиане перебили
От мала до велика всех евреев;
Едва ли вам известно, что при этом
Лишился я жены и семерых
Цветущих сыновей: у брата в доме
Я спрятал их - и все они сгорели.¹⁹

Natan

Gatada yahudiy yoshu qarisin
Nasroniylar tig'dan o'tkazgan edi;
Buni ham bilmaysiz balki, shunda men
Xotinim va etti nafar o'g'limdan
Judo bo'ldim; barin og'am uyiga,
Yashirib qo'ygandim,
Uy yonib ketdi. O, beshavqat taqdir!..²⁰

Bu taqdir zarbasi Natanning nasroniylarga bo'lgan ixlosini qaytarmay, balki o'zi asrab olgan nasroniy qiz Rexa yangi ishonch-umidga etakladi. Bu ishonch uning donoligi va o'tkir zehniligidan darak beradi. Inson aql-idroki Oллоh tomonidan beriladi, uni qanday boshqarish esa bandasiga bog'liq. Bunda faqat inson Oллоhning amriga bo'ysunish kerak:

Nathan.

"und doch ist Gott!

Doch war auch Gottes Ratschluß das! Wohlan!

Komm! übe, was du längst begriffen hast,

¹⁸ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-446.

¹⁹ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-246.

²⁰ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.75-bet

Was sicherlich zu üben schwerer nicht,
Als zu begreifen ist, wenn du nur willst.
Steh auf!"²¹

Натан
"Ведь есть над нами бог! И в этом только
Исполнилось его определение!
Теперь - на новый путь! Яви в делах.
Что уж давно постигнуто тобою:
Кто хочет, для того осуществить
Что-либо не труднее, чем постигнуть.
Вставай! Иди!"²²

Natan
„Axir tepamizda qodir xudo bor!
Neki ajrim – faqat uning amri-la
Endi – yangi yo'lga! O'zing ko'rsat
Sabru irodangni ayla namoyon.
Qani otlan, tur!"²³

E'tiqod tushunchasi deganda, Natan taqdir taqozasiga ko'ra, yangi hayot boshlagani va Rexani o'z qizi sifatida asrab olgani tushuniladi. Natan asli yahudiy diniga mansub bo'lsa-da, ishonch va aql-idrok, tangriga e'tiqod va insoniy fazilatlar orqali yangi rejalarini amalga oshirdi.

Muallif tomonidan Natan boshqalarga namunaviy siymo sifatida yoritilgan. Kitobxon va tomoshabin ko'z o'ngida bu siymo donishmand kishi bo'lib gavdalanadi:

Daja.

Hätt' ich,
Wenn er so gut nicht wär', es mir so lange
Bei ihm gefallen lassen? Meint Ihr etwa,
Ich fühle meinen Wert als Christin nicht?"²⁴

Дайя
Да разве я, не будь таким он добрым,

²¹ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-447.

²² Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-246

²³ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.76-bet.

²⁴G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-355.

Жила бы у него так долго? Разве
Достоинство свое как христианки,
По-вашему, уж ни во что я ставлю?²⁵

Dayu

Agar u himmatli bo'lmaganida
Shuncha yasharmidim unikida men?
Axir, nasroniylik e'tiqodimning
Putur topganini zarra sezmadim.²⁶

SULTON SALOHIDDIN

Sulton Salohiddin saroyi Quddus shahri markazida joylashgan edi. Bu shaharda Natan, rohib va Rexa ham istiqomat qilardi. Rohiblar bular o'rtasidagi munosabatlarning siyosiy tenglikka hech qanday dahli bo'lmasada, Sulton Salohiddinning akasi Malik va Richardning singlisi o'rtasidagi ishqiy munosabatlarga tosqinlik qilishgan edi.

Salohiddin jangdagi ko'p sarf-harajatlar tufayli moddiy qiyinchiliklarga duchor bo'lgandi. U o'zi ishg'ol etgan Misrdan soliq to'lovlarini intiq bo'lib kutar edi. Salohiddin bu borada ikkita qaror chiqardi. Biri xazinani to'ldirish masalasida Al-G'ofiy mas'ul ekanligi, ikkinchisi esa o'zi asirga olgan rohiblarni qatl qilish haqida edi. U kunlik to'lov va badallardan o'zining qarzlaridan qutulib oldi.

U har kuni opasi Zita bilan shaxmat o'ynar, agar opasi o'yinda yutsa, Salohiddin uni bir muncha miqdordagi pul bilan taqdirlar edi. Opasi unga ko'p hollarda maslahatlar berar va opasi yahudiy Natanni ham yoniga olishni taklif qilardi. Chunki Natandan uning xazinasini to'ldirish masalasida yaxshi fikrlar chiqishiga umid katta edi.

Sittah

Es reift indes bei mir vielleicht ein Anschlag,
Den ich auf diesen Nathan habe.--Komm!²⁷

Зита

Тем временем мой замысел созреет -
Я о Натане думаю. - Идем!²⁸

²⁵ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-147.

²⁶ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.23-bet.

²⁷ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-372.

²⁸ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-166.

U yahudiy Natan bilan do'stlashishda nafaqat barcha diniy xurofot yuzasidan, balki bu bilan e'tiqod qilish g'oyasini ilgari surish edi. Bu e'tiqodda har kim xohlagan diniga e'tiqod qilishi nazarda tutilgan edi. Natan bilan birgalikda rohiblarni to'g'ri yo'lga boshladi va va ularning ta'qibi ostidagi Rexani qutqardi.

TAMPLIER (ROHIB)

Yosh rohib diniy ristar-monaxlardan edi. Ristar-monaxlar Evropada salb yurishi davrida paydo bo'la boshlagandi. Ular oldida turgan birinchi vazifa – sarastin (musulmon xalqlarining qadimgi nomi)ning hujumidan ziyoratchilarni himoya qilish edi. Tez orada ular ham musulmonlarga qarshi kurash boshlab yuborishdi va harbiy jarayonga kirishib ketishdi. Ular boshqaruvni qadimgi Salomon saroyi yaqinida joylashgan maskandan olib borar edi.

Yosh rohib o'zining jamoa-qo'shinini harbiy holatini kuchaytirdi va Tebninda salb yurishidagi janglarda qatnashdi. Bir vaqtlar asir bo'lgan Rohibning gunohidan kechgan Sulton Salohiddinga u o'zining qanday kuchga ega ekanligini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ldi. Shaharga bostirib kirishda Natanning uyiga ham o't qo'ydi. U Dayya va Rexa bilan bo'lgan oldingi munosabatidan voz kechdi. Nasroniylarda yahudiylarga qarshi bo'lgan diniy xurofotni o'z faoliyatining negizi deb hisoblaydi.

Tempelherr

Es ist der Tempelherren Pflicht, dem ersten

Dem besten beizuspringen, dessen Not

Sie sehn.²⁹

Храмовник

Храмовника спешить на помощь, кто бы

В ней ни нуждался.³⁰

Natan bilan bo'lgan suhbatda yosh rohib Natandan taklifini eshitib, uning aqliga lol qoladi:

Nathan

Sind

Wir unser Volk? Was heißt denn Volk?

Sind Christ und Jude eher Christ und Jude,

Als Mensch?³¹

²⁹ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-375.

³⁰ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотека имени А.Навои,2005.стр-170.

Натан

Мы - не народы наши. Что - народ?

При чем он здесь? Еврей и христианин -

Не люди ли сперва, а уж потом

Еврей и христианин?³²

Natan

Qolaversa, siz, men – hali xalqmasmiz.

Xalq o'zi nima u? Juhud, nasroniy –

Aslida har biri inson emasmi?³³

Natanning do'st tutinishiga rozi bo'lgan yosh rohib Natanning huzuriga keladi. U Natanning yonida olovdan o'zi xalos etgan nasroniy qiz Rexani uchratadi. Ular o'zaro suhbat asnosida bir-biri bilan yaqindan tanishishga imkon tug'iladi. Rexa bilan rohib o'rtasida ishqiy munosabatlar paydo bo'ldi. Natan Rexa va rohib o'rtasidagi nikohni kechiktirar edi. Bundan shubhalangan rohibda eski xurofot yangilandi. U Rexani qo'lini so'rab, uch marta (xuddi Sharqda mavjud udum singari) so'raydi:

Tempelherr

Also--gebt sie mir!

Gebt sie nur mir; und laßt ihn kommen. Ha!

Er soll's wohl bleibenlassen, mir mein Weib

Zu nehmen.³⁴

Храмовник

Мне взять ее? Отдайте мне ее!

Пусть явится тогда. Пусть у меня

Отнять жену попробует! Отдайте

Ее мне поскорей!³⁵

Rohib

³¹ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-378.

³² Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотека имени А.Навои,2005.стр-174

³³ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.13-bet.

³⁴ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-462.

³⁵ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотека имени А.Навои,2005.стр-263.

Bering menga! Mayli, kelishsin
Shunda. Xotinimni tortib oling ko'rishsin!
Uni bering tezroq!³⁶

(Izoh: asliyat va rus tilidagi tarjimada "Rexaning qo'li uch marotaba so'ralgani" ifodalangan, lekin o'zbek tiliga Mirpo'lat Mirzo tomonidan "ikki marotaba so'ralgan" tarzida tarjima qilingan.)

Shu bilan birga yosh rohib Rexaning kelib chiqish nasl-nasabidan qat'iy-nazar, o'zining niyati qat'iyligi quyidagi parchada keltirilgan:

Tempelherr
Sie sei
Nun Eure Tochter, oder sei es nicht!
Sei Christin, oder Jüdin, oder keines!
Gleichviel! gleichviel!³⁷

Храмовник
Чья дочь она -
Пусть ваша или нет, пусть христианка,
Еврейка, пусть ни то и ни другое -
Нет нужды мне!³⁸
Rohib

Mayli, sizniki
Mayliga, nasroniy yoki yahudiy
Zuriyodi bo'lsin u – menga baribir!³⁹

U Rexaga bo'lgan sevgisining qat'iy ekanligini isbotlashga qaramasdan, Natan uning orzusi ushalishini kechiktirar edi. Chunki rohib kim va qaysi mazhabdan ekanligi Natanga ayon edi. Rohibning ismi Kurd fon Shtaufen ekanligini Natan eshitib lol qolgan edi:

Nathan.
Denn Eure Mutter--die war eine Stauffin.
Ihr Bruder, Euer Ohm, der Euch erzogen,
Dem Eure Eltern Euch in Deutschland ließen,

³⁶ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.87-bet.

³⁷ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-463.

³⁸ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-263.

³⁹ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.87-bet.

Als, von dem rauhen Himmel dort vertrieben,
Sie wieder hierzulande kamen:--Der
Hieß Curd von Stauffen; mag an Kindes Statt
Vielleicht Euch angenommen haben!--Seid
Ihr lange schon mit ihm nun auch herüber-
Gekommen? Und er lebt doch noch?

Tempelherr.

Was soll

Ich sagen?--Nathan!--Allerdings! So ist's!
Er selbst ist tot. Ich kam erst mit der letzten
Verstärkung unsers Ordens.--Aber, aber--
Was hat mit diesem allen Rechas Bruder
Zu schaffen?⁴⁰

Натан

Ведь ваша мать была
Из рода Штауфен. Брат ее - ваш дядя,
Которым вы воспитаны, кому
Вас отдали родители, когда
Германии суровая природа
Заставила сюда их возвратиться;
Так этот самый дядя ваш был Курд
Фон Штауфен; вас потом он мог, пожалуй,
Усыновить. Давно вы с ним в разлуке?
Он жив еще?

Храмовник

Что мне сказать? Натан!
Конечно, так! Все так! Мой дядя умер,
А я с последним орденским отрядом
Приехал в Палестину. Но какое ж,
Какое отношение имеет
Все это к брату Рэхи?⁴¹

⁴⁰ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-478.

Natan

Shtaufenlar naslidan bo'lgan onangiz.

Va uning akasi – sizning tog'angiz,

Germaniyaning og'ir iqlimi sabab,

Kelib qolganidan keyin bu yerga,

Sizni o'z uyida tarbiyalagan,

O'g'il qilib olmoq fikri ham bo'lgan.

Qachon ajrashdinglar? U hali bormi?

Rohib

Men ne ham derdim? O, Natan! Natan!

Bari siz aytgandek bo'lgan! Ha, tog'am

Hayotdan ko'z yumgach, so'nggi jangovar

Jangchilar-la keldim men Falastinga.

Biroq bular barin ayting, Rexaga.

Qanday dahli bordir?⁴²

Chunki Filnek fon Shtaufen ismi Natanga eski tanishini eslatar edi. Rohib Asadning o'g'li ya'ni Salohiddin va Zitaning jiyani edi. Asadning ikkita farzandi bo'lib, biri Blanda fon Filnek – Natanning uyida yashovchi Rexa va Lio fon Filnek – rohib edi. Rohibni Kurd fon Shtaufen farzand qilib asrab olgan va Quddus shahriga kelar chog'ida o'zining familiyasini bergan edi. Demak, Rohib va Rexa aka-singil bo'lganligi ma'lum edi. Ular o'rtasidagi nikoh xotimasi tarqoq holda yakun topgan. Buning o'rniga ular nafaqat qavm-qarindoshlik, balki ishonch-e'tiqod bilan birga diniy konfessiya va yangi bir millatlar jipsligini yaratdi.

REXA

Rexa – sulton Salohiddinning akasi Asadning qizi. Asad Shtaufenlar sulolasidan bo'lgan nasroniy ayolga uylangan va uning xotini Rexa go'dakligidayoq jangda halok bo'lgan edi. Oilasidan ajralib qolgan Asad yosh etim qolgan qizi Rexani yahudiy Natanga berishdan boshqa chorasi yo'q edi.

Shunday qilib, musulmon dini vakili – Asadning qizi Rexa yahudiy Natan qo'lida tarbiya topgan. Uning asl ismi – Blanda fon Filnek bo'lib, o'zining kelib chiqish nasl-nasabini kech anglab etdi.

⁴¹ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-281.

⁴² G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.104-bet.

Rexa Natanni o'zining haqiqiy otasi deb bilar edi. Uning aqliga va zehniga Salohiddinning opasi lol qolar edi. Anch fikri teran Rexa bu fazilatlarni barchasini otasiniki deb bilar edi. Bu haqda quyidagi parchadan guvohi bo'lish mumkin:

Sittah

So jung! so klug! so fromm!
Was du nicht alles weißt! nicht alles muß
Gelesen haben!

Recha

Weiß ich allein aus seinem Munde
Und könnte bei dem meisten dir noch sagen,
Wie? wo? warum? er mich's gelehrt.⁴³

Зита

Так молода! Умна! Скромна! Чего
Не знаешь ты! Чего не прочитала!

Рэха

Я знаю только от него. Могла бы
Я даже рассказать тебе о многом -
Когда, и как, и почему меня
Он научил тому или другому.⁴⁴

Zita

Sen biram navniholsan! Biram aqli!
O'qishda, bilimda tengi yo'q sening!

Rexa

Barchasin o'rgandim faqat otamdan
Zero u ko'plab narsalar
Qachon, qay mahalda va nechun menga –
Kerak bo'lib qolar – bular haqida

⁴³ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin, 1954. S-467.

⁴⁴ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотека имени А.Навои, 2005. стр-268.

Senga soatlab so'zlashim mumkin.⁴⁵

Natan Rexaning tarbiyasida e'tiqod bilan birga o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'ularini singdirish uchun ko'p urindi:

Nathan.

Recha! Recha!

Es ist Arznei, nicht Gift, was ich dir reiche.

Er lebt!--komm zu dir!--ist auch wohl nicht krank:

Nicht einmal krank!⁴⁶

Натан

Рэха! Рэха!

Лекарство я даю тебе, не яд.

Он жив! Приди в себя! Да и болеть

Не думал вовсе! Слышишь, Рэха?⁴⁷

Natan

Rexa, ko'zingni och, senga og'umas,

Malham bergayman men – u tirik, axir!

Umid qilamanki, betob ham emas!⁴⁸

Rexa Dayyaninig har bir fikriga juda e'tiborli edi. Uni Dayya onasidek parvarish qilgani, unga ko'p yaxshiliklar, kezi kelganda qatiqqo'llik qilganliklarini Zitaga bayon qilganidan bilish mumkinki, Dayyada Ollohga e'tiqod fikri ustun turardi:

Recha

Meine gute böse Daja kann

Das wollen,--will das können.--ja; du kennst

Wohl diese gute böse Daja nicht?

Nun, Gott vergeb' es ihr!--belohn' es ihr!

Sie hat mir so viel Gutes,--so viel Böses

⁴⁵ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.92-bet.

⁴⁶ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-338.

⁴⁷ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-128.

⁴⁸ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.10-bet.

Erwiesen!⁴⁹

Рэха

Добрая моя и злая Дайя

И может и желает. Ах, не знаешь

Ты этой злой и доброй Дайи? - Боже,

Прости ей и воздай за то! Как много

Она добра мне сделала и зла!⁵⁰

Rexa

O'sha o'ta mehribon

Va yovuz niyat qalb Dayyam-da mening,

O, siz bilmaysizmi Dayyani hali? –

Tangrim, u ayolni o'zing avf et

Va bergin ajrini: u menga bisyor

Ezguliklar qildi, bisyor razillik!⁵¹

Xulosa qilib aytganda, Dramada yakka hukmdor Salohiddin, cherkov peshvosi Patriarx va boy savdogar yahudiy Natan obrazlarini uchala – musulmon, nasroniy va yahudiy din vakillari sifatida ko'rish mumkin.

Hukmdor va oddiy fuqaro, xo'jayin va xizmatkor, manmanlik va sipolik kabi qarama-qarshi munosabatlar ma'rifatparvarlik davridagi dolzarb mavzu bo'lib hisoblanar edi.

2.2. Dramada dinlararo tolerantlik;

Qomusiy lug'atlarda ta'riflanishicha, "tolerantlik", lotincha "tolerantio", ya'ni "sabr-toqatlilik", "keng fe'lilik", "bag'rikenglik" ma'nolarini anglatar ekan.

Tolerantlik (bag'rikenglik) – o'zgalarning turmush tarsi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari vae'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish. Hozirgi vaqtda tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o'zaro bog'liqlik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko'chib yurishi va boshqalar jamiyatda tolerantlik tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi. Tamoyili aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashti-rishdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni

⁴⁹ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-469.

⁵⁰ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотека имени А.Навои,2005.стр-271.

⁵¹ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.94-bet.

tasdiqlaydi. Bu tamoyilag ko'ra, har kim o'z etiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim.

Bu haqda Prezidentimiz Islom Karimovning asarlari, ma'ruza nutqlari, chiqishlaridagi ma'naviy-ma'rifiy mavzuda tuzilgan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasida "Dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik)" haqida quyidagicha bayon etilgan:

"Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi – xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya vaniyatlar yo'lada hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Qadim-qadimdan din aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham, dinning ana shu tabiati bilan bog'liq.

Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi.

Hozirgi zamonda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi..."⁵²

Yahudiy din vakillari

Dramaning bosh qahramoni Natan yahudiy dini vakili bo'lib, e'tiqod yo'lida uning na birodari va na biror bir hamfikri bor edi. Dramada yahudiy din vakili sifatida yolg'iz qahramon edi.

Islom dini vakillari

Sulton Salohiddinning opasi – Zita juda aqlli va ziyrak edi. U ukasi Salohiddinga iqtisodiy va siyosiy masalalar bo'yicha maslahat va tavsiyalar berib turar edi.

Al-G'ofiy – VIII asrdan Old-Osiyoda rivojlana boshlagan musulmon dinining eng qashshoq vakillaridan biri edi. Ular mamlakat ichkarisi va tashqarisidagi siyosatdan uzoq bo'lib, masjid va madrasalarda g'aribona yashab yurar edi. Al-G'ofiy sulton Salohiddinning xazinachisi sifatida xizmat qilar edi. U o'zini javobgarlikdan har doim olib qochar, o'zining foydasiga kelganda uzoqni ko'ra bilguvchi edi.

Nasroniy dini vakillari

Dayya Falastinga kelgan qirol Fridrix qo'shinidagi askarlardan birining xotini edi. Buni Dayya quyidagicha eslaydi:

⁵² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, Toshkent "O'zbekiston" – 2001, 60-bet.

Daja

Auch mir ward's vor der Wiege nicht gesungen,
Daß ich nur darum meinem Ehgemahl
Nach Palästina folgen würd', um da
Ein Judenmädchen zu erziehn. Es war
Mein lieber Ehgemahl ein edler Knecht
In Kaiser Friedrichs Heere—⁵³

Дайя

Мне в песнях колыбельных не сулили,
Что с мужем попаду я в Палестину
Лишь для того, чтоб у жида стать нянькой.
Мой дорогой супруг слугой был верным
У царственного Фридриха в войсках,
И верою и правдою служа...⁵⁴

Dayya

Beshigimda alla aytgan damlar
Bir kun Falastinga erring-la borib
Enagalik qilgung juhudnikida
Deya karomat ham qilishmagandi.
Axir mening jufti halolim
Podshozoda Fridrix qo'shinida, ha,
Xizmat qilgan yuksak e'tiqod bilan...⁵⁵

Uning eri Kichik Osiyodagi tog' daryolardan birida (Salef daryosida) Fridrix I Barbarossa qo'shinlari tarkibida cho'kib halok bolgan. U yahudiy Natan uyida Rexaning ham opasi, ham dugonasi va ham onasi sifatida har doim hamfikr edi:

Natan Dayyani pul bilan ta'minlab turar va Rexaga qilgan ezguliklari uchun ko'p g'amxo'rliklar qilib turar edi.

Dayya – ko'ngli ochiq, suyakli, lekin kaltabin ayol edi. U sodda, ko'p ham tanqidiy qarashlarga ega bo'lmagan hislatlarga ega edi. Savdo-sotiqni yaxshi ko'rardi-yu, lekin uni uncha eplay olmas edi. Rexa uchun Dayya o'ta mehribon va kezi kelganda o'ta qattiqqo'l edi. Rexa u haqda shunday deydi:

Recha

⁵³ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-355.

⁵⁴ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотека имени А.Навои,2005.стр-147.

⁵⁵ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.23-bet.

Meine gute böse Daja kann
Das wollen,--will das können.--ja; du kennst
Wohl diese gute böse Daja nicht?
Nun, Gott vergeb' es ihr!--belohn' es ihr!
Sie hat mir so viel Gutes,--so viel Böses
Erwiesen!⁵⁶

Рэха
Добрая моя и злая Дайя
И может и желает. Ах, не знаешь
Ты этой злой и доброй Дайи? - Боже,
Прости ей и воздай за то! Как много
Она добра мне сделала и зла!⁵⁷

Rexa
O'sha o'ta mehribon
Va yovuz niyat qalb Dayyam-da mening,
O, siz bilmaysizmi Dayyani hali? –
Tangrim, u ayolni o'zing avf et
Va bergin ajrini: u menga bisyor
Ezguliklar qildi, bisyor razillik!⁵⁸

Klosterbruder (Shogird-rohib)

Shogird-rohib 18 yillar chamasi oldinroq otboqar bo'lib Falastinga kelgan edi. U otanadan yolg'iz yetim qolgan Rexa ismli nasroniy qizni yahudiy Natanga olib kelib topshirgan edi:

Klosterbruder
Hat Euch ein Reitknecht nicht vor achtzehn Jahren
Ein Töchterchen gebracht von wenig Wochen?⁵⁹

Послушник
Осьмнадцать лет назад не привозил ли

⁵⁶ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-469.

⁵⁷ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотека имени А.Навои,2005.стр-271.

⁵⁸ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.94-bet.

⁵⁹ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-444.

К вам девочку-младенца некий конюх?⁶⁰

Shogird-rohib

O'n sakkiz yil bundan muqaddam

Qandaydir otboqar bir qizaloqni

Topshirmaganmidi sizga? Bir eslang.⁶¹

Nasroniy qiz yahudiy qo'lida tarbiya topishi shogird-rohibga ahamiyati yo'q edi. Uning nasroniylik dinidan ko'ra yahudiylik dinini ustun qo'yishini kuzatish mumkin:

Klosterbruder

Und Kinder brauchen Liebe,

Wär's eines wilden Tieres Lieb' auch nur,

In solchen Jahren mehr, als Christentum...

...Und ist denn nicht das ganze Christentum

Aufs Judentum gebaut?⁶²

Послушник

А детям в этом возрасте любовь -

Хотя бы зверя дикого любовь -

Нужнее христианства...

... И будто

Все христианство не на иудействе

Основано?⁶³

Shogird-rohib

Zero go'dak bundoq palla mehrga -

Hatto yirtqich hayvon mehri bo'lsa ham, -

...Axir, nasroniylik yahudo dinin

Asos-arkonida tiklanmaganmi?⁶⁴

Shogird-rohib darveshona hayot kechirsa-da, hayotdan va arab bosqinchilari tomonidan ancha ezilgan edi. U bosh rohib xizmatiga yollanib, hayot kechirar edi. U o'z hayotini quyidagicha tasvirlaydi:

Klosterbruder

⁶⁰ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-243.

⁶¹ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.73-bet.

⁶² G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-446.

⁶³ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-245.

⁶⁴ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.75-bet.

Vor kurzem saß ich noch als Eremit
Auf Quarantana, unweit Jericho.
Da kam arabisch Raubgesindel, brach
Mein Gotteshäuschen ab und meine Zelle
Und schleppte mich mit fort. Zum Glück entkam
Ich noch und floh hierher zum Patriarchen,
Um mir ein ander Plätzchen auszubitten,
Allwo ich meinem Gott in Einsamkeit
Bis an mein selig Ende dienen könne.⁶⁵

Послушник

Не так еще давно
Отшельником я жил на Кварантане,
Невдалеке от Иерихона. Вдруг
Нагрянули разбойники-арабы,
Разрушили и келью и часовню
И увели меня с собою. К счастью,
Мне удалось бежать. Я - к патриарху,
Просить, чтоб дал другой мне уголок,
Где господу служить в уединенье
Я мог бы до кончины безмятежной.⁶⁶

Shogird-rohib:

Yaqin-yaqingacha
Ierixondan nari – Kvarantanda
Zohidona turmush kechirardim men
Birdan sodir bo'lib arab bosqini,
Butxonayu hujram etishib vayron,
Menmi asir qilib olib ketishdi!
Va qochib qutuldim baxtim yorlaqab,
Keyin bosh rohibga borib yolbordim,
Menga chillaxona hadya etsangiz,
Toki hayotimning so'nggiga qadar –
Toat-ibodatda kechsin deb umrim.⁶⁷

⁶⁵ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin, 1954. S-443.

⁶⁶ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотека имени А.Навои, 2005. стр-242.

Bosh rohib yahudiy Natanning nasroniy qiz Rexani asrab olgani va uni tarbiyalayotganidan xabar topib, shogird-rohibni Natanning izidan kuzatishga yollaydi. Bu haqda shogird-rohib barchasini Natanga so'zlab beradi.

Shogird-rohib har bir ishni puxta va obdon o'ylab bajarar edi. U bosh rohib topshirig'ini o'zi emas boshqa birov orqali bajarish asnosida rohib bilan tanishadi. Ikkinchisida esa sulton Salohiddinning boyliklariga ko'z olaytirgan bosh rohibning rasmiy topshirig'ini rohibga yuklaydi.

Shogird-rohib juda haqgo'y, biroz sodda odam edi. U hissiyotga beriluvchan, lekin bahs-munozaraga kirishishga tortinib turardi. U Gang daryosi bo'yidagi Tabor tog' tizmalarida darveshona hayot kechirardi. Shogird-rohib va darvesh siymolarining hatti-xarakatlari ham dramada o'xshash tarzda ifodalangan.

Patriarx (Cherkov peshvosi)

Dramada Quddus cherkovi peshvosi nasroniy dinining oliy tabaqa vakili sifatida tasvirlangan. U dramaning to'rtinchi parda ikkinchi sahna ko'rinishida cherkov boshlig'i sifatida o'zining fikrlari bilan ishtirok etgan. Martabasi ulug' cherkov peshvosi sahna boshida salobatli gavdalangan:

Der Patriarch, welcher mit allem geistlichen Pomp den einen Kreuzgang heraufkommt.⁶⁸

Патриарх, со всей подобающей его сану пышностью появляющийся в одном из переходов.⁶⁹

Bosh rohib, viqoriga xos dabdabali libosda yo'laklarning birida ko'rinadi.⁷⁰

Bosh rohib doimo qo'l ostidagi mulozimlariga nazar-pisand qilmay murojaat qilar va rohiblarga esa xuddi yosh bolalarga gapirgandek muamola qilardi. Masalan, sahna boshida maslahat uchun kelgan rohibga to'g'ridan-to'g'ri shart qo'yishini guvohi bo'lishimiz mumkin:

Patriarch

- Nur ist der Rat auch anzunehmen.⁷¹

Патриарх

Но чтоб совет был принят!⁷²

Bosh rohib

⁶⁷ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.72-bet.

⁶⁸ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-424.

⁶⁹ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотека имени А.Навои,2005.стр-221.

⁷⁰ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.52-bet.

⁷¹ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-425.

⁷² Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотека имени А.Навои,2005.стр-222.

Biroq, shart amal qilmoqlik!⁷³

Bosh rohibning buyrug'iga ko'r-ko'rona, so'zsiz bo'ysunish va bajarish barcha ruhoniylarga odat bo'lib qolgan edi. Yahudiy Natanning uyida tarbiya topgan nasroniy qiz Rexa bosh rohib uchun murtdlik hisoblanar edi. Demak, asl diniga bo'lgan ishonch-e'tiqodni ochiq-oydin rad etish gunoh va u jazoga loyiq deb topilgan.

Patriarch

Tut nichts! der Jude wird verbrannt!--Denn besser,
Es wäre hier im Elend umgekommen,
Als daß zu seinem ewigen Verderben
Es so gerettet ward.--Zudem, was hat
Der Jude Gott denn vorzugreifen? Gott
Kann, wen er retten will, schon ohn' ihn retten.⁷⁴

Bosh rohib

Farqi yo'q! U gulxan o'tiga mahkum,
Go'dak qashshoqlikda o'lgani afzal,
Xalos qilingandan ko'ra toabad
Juhudga qolganmas xudoning kuni.
Xohlasi – usiz ham qutqarajakdir.⁷⁵

Haqiqatdan ham, arziyas narsa uchun o'lim jazosi tayinlash antiqa holat edi. Mazkur ko'rinishda kitobxon yoki tomoshabin hajviyaga boy bosh rohib siymosini guvohi bo'lishadi.

Bunday antiqa “bahs”ga boy ko'rinishda bosh rohib har bir topshiriqni ko'r-ko'rona emas, balki aql-idrok bilan, farishtalar yoki farishta misoli el-ulus da'vati bilan bajarish kerakligini uqtirib o'tgan edi.

Rohib bosh rohibga o'zining quyidagi fikrlarini bayon qildi:

Tempelherr.

Gesetzt, ehrwürd'ger Vater,

Ein Jude hätt' ein einzig Kind,--es sei

Ein Mädchen,--das er mit der größten Sorgfalt

Zu allem Guten auferzogen, das

Er liebe mehr als seine Seele, das

⁷³ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.53-bet.

⁷⁴ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-427.

⁷⁵ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.56-bet.

Ihn wieder mit der frömmsten Liebe liebe.
Und nun würd' unsereinem hinterbracht,
Dies Mädchen sei des Juden Tochter nicht;
Er hab' es in der Kindheit aufgelesen,
Gekauft, gestohlen,--was Ihr wollt; man wisse,
Das Mädchen sei ein Christenkind, und sei
Getauft; der Jude hab' es nur als Jüdin
Erzogen; lass es nur als Jüden und
Als seine Tochter so verharren.⁷⁶

Храмовник

Предположите,
Честной отец, что у еврея есть
Единственный ребенок - дочь; допустим,
Что ревностно воспитывал он в ней
Все доброе, что за нее он душу
Готов отдать и что она взаимно
Его нежнейшею любовью любит.
И кто-нибудь из нас вдруг узнает,
Что девочка - не дочь еврея вовсе,
Что он ее давно, еще младенцем,
Нашел, купил, украл, - что вам угодно, -
Что это - христианское дитя,
Крещеное, что ей лишь воспитанье
Еврейское дано и что еврей.
Ее за дочь свою и за еврейкук
Лишь выдает.⁷⁷

Rohib

Aytaylik, u qizning yuragida eng
Ezgu tuyg'ularni avaylab parvarish,
O'stirdi u joni kabi avaylab,
Ki qiz ham mehrin hech ayamas undan.

⁷⁶ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-425.

⁷⁷ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотека имени А.Навои,2005.стр-223.

Ogoh bo'lar kimdir kutilmaganda –
U qiz yahudiyning qizi emasmish;
Uni qachonlardir, murg'akligida
Topib, sotib yoki o'g'irlab olmish, -
Ne desangiz deng, - aslida go'dak
Nasroniy qavmidan, cho'qintirilgan,
Ammo yahudiycha tarbiya olmish;
Uni qizim deya – yahudiy qiz deb
Ataydi juhud.⁷⁸

Na bu fikr, na bu holat bosh rohibga ma'qul keldi. U nima yaxshi yoki nima yomon, nima haq yoki nima nohaq, Rexa uchun nima foydali yoki nima befoyda ekanligini muhokama ham qilib o'tirmadi. Bularni muhokama qilish bosh rohib uchun bema'ni bir ish hisoblanar edi. Bu urinishlardagi xurofotga dahli bo'lmagan bahs-munozaralar uni sira qiziqtirmasdi.

Qay bir kishi bosh rohibning tasavvur tushunchasiga nafaqat muhokama qilish qobiliyati va iste'dodini, balki ishonch-e'tiqodini o'rnatish kerak edi. Bosh rohib uchun bu e'tiqodsiz, dinsiz go'dakni tarbiyalash haqidagi fikrlar bo'lmag'ur tasavvur va tushuncha edi.

Bosh rohib Natanning tolerantligi va donishmandligiga o'zining fikr va g'oyalari bilan qarshi chiqdi. U ko'p va'z o'qirdi. Oshkora tanqidiy bo'lgan bahsni boshlanishidanoq oldini oldi. Garchi u o'zining turg'un fikrlarini mutlaq haq deb hisoblasa-da, e'tiqodi mustahkam va garchi u o'zining qotib qolgan fikrlarini jo'shqin deb bilsa-da, ancha jiddiy qiyofada edi.

Muallif Gottxold Efraim Lessing dramadagi bosh rohib obrazini bosh rohib Gerakl obrazi tasvirlangan manba (unda ijobiy qahramon sifatida gavdalangan obraz)dan olgan. Har holda Lessingning zamondoshlariga ma'lum ediki, muallif bosh rohib obrazini hamburglik protestant mazhabidagi bosh ruhoni Gyotsedan o'zlashtirgan edi.

Lessing dramada ishonch-e'tiqod, aql-idrok, tanqid va muzokaralarni ifodalagan. U o'z davrida davlat va cherkov birligiga e'tibor qaratgan edi. Lessingning din, cherkov, davlat va siyosat borasidagi tushunchalariga qarama-qarshi vaziyatlar bosh rohib obrazida tasvirlangan. Lessing bosh rohibni boshqa rohiblarga nisbatan qarama-qarshi qo'ygan:

Patriarch

ist der vorgetragne Fall nur so

Ein Spiel des Witzes: so verlohnt es sich

Der Mühe nicht, im Ernst ihn durchzudenken.

Ich will den Herrn damit auf das Theater

Verwiesen haben.⁷⁹

⁷⁸ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.54-bet.

Патриарх

Ведь если этот случай -

Не более как плод воображенья,

То обсуждать его - лишь время тратить.

За этим я послал бы господина

В театр:⁸⁰

Bosh rohib

Agar bu voqea

Tasavvur mevasi bo'lmagan bo'lsa,

Muhokama qilmoq – bema'ni ish.

Yaxshisi, janobni men teatrga

Yo'llay qolay, unda bu xil qismatlar

Chunon mahorat-la o'ynalmoqdadir.⁸¹

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nemis tanqidchisi va san'at nazariyotchisi Gottxold Efraim Lessing jahon estetik va tanqidiy tafakkurining buyuk asari bo'lmish “Donishmand Natan” dramasi jahon mumtoz dramaturgiyasining barkamol namunalari sifatida shu vaqtga qadar ko'plab teatr repurtuarlarini bezab keladi.

Haynrix Hayne u haqda “zamonasining jonli tanqidchisi edi va bu tanqid tafakkur hamda ehtirosning keng sohalarida dinda, fanda, san'atda iz qoldirdi” deya yozib, dahosi va xizmatlarini e'tirof etib, ulug'lagan edi. Lessing qalamiga mansub sahna asarlarining jahon teatrlari repurtuarlaridan hanuzga qadar tushmay kelishining sababi shundaki, birinchida, u san'at nazariyotchisi sifatida o'z asarlarini teatrning, sahna san'atining barcha xususiyatlari va talablarini inobatga olib yozgan va bu asarlarida o'zining estetik g'oyalarini ifodalagan bo'lsa, ikkinchida mutafakkir sifatida ularda hayotning o'tkinchi, xususiy, chakana masalalarini emas, balki millar va insoniyat taqdiri uchun g'oyat muhim, ya'ni umuminsoniy ahamiyatga molik masalalarni ko'targan.

Lessingning “Donishmand Natan” dramasi jahon adabiyotining umrboqiy asarlari qatoridan mustahkam o'rin olgan. Lessingning “Donishmand Natan” asari o'ta hayotbaxsh, o'ta dolzarb va umuminsoniy ahamiyatga molik olijanob g'oyani ifodalash, avlodlar qalbiga quyish,

⁷⁹ G.E.Lessing. Gesammelte werke. Zweiter Band. Nathan der Weise. Aufbau-Verlag Berlin,1954. S-426.

⁸⁰ Г.Э.Лессинг. Натан мудрый. Изд-во Узбекского Национального библиотеки имени А.Навои,2005.стр-224.

⁸¹ G.E.Lessing. Donishmand Natan. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2005.54-bet.

ularni g'ayri insoniy xatti-harakatlardan tiyish, yer yuzida tinchlik va osoyishtalik, mehr va muhabbat tantana qilgan hayotni barpo etish maqsadida yozilgan.

Dramaning o'zbek tilidagi premerasi 2005 yil 16-sentyabrda Toshkentda O'zbekiston Milliy akademik drama teatri sahnasida, bir haftadan so'ng esa Samarqandda, ochiq havoda Sherdor madrasasining ichkari hovlisida bo'lib o'tdi. Tomoshabinlar, dramani ko'rgan barcha kishilar asar muvaffaqiyatli sahnalashtirilganini, binobarin ushbu dramani sahnaga qo'yish haqidagi fikrimiz g'oyat to'g'ri bo'lganini tasdiqlashdi. Oradan ikki yil o'tgach, 2005 yilning oktyabr oyida bu gal ham Gyote nomli instituti (Kristiana Gyuntner rahbarligida) va Germaniyaning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda "Donishmand Natan" asarini Buxoro va Xiva shaharlarida namoyish etildi. Tomoshabinlar fikri ijobiy bo'ldi. Har ikkala shahrning rasmiy vakillari ushbu mavzuning hozirga qadar g'oyat dolzarb ekanligini aytdilar. Bu fikrga qo'shilmaslikning iloji yo'q edi.

Xulosa shuki, yahudiy Natandagi sabr toqat, odamiylik va bag'rikenglik dinlar o'rtasidagi nizoga barham beradi, sulton Salohiddinda esa adovat shuurini uyg'otadi, nasroniy din peshvosi arxiyeskop o'z g'ayriinsoniy xatti-xarakatidan mulzam bo'lib qoladi. Hatto, dinlar o'rtasidagi "Yig'i devori" borgan sari nurab, oxiri qulab tushadi. Asardagi bosh g'oya – tolerantlik g'oyasi ekani uning so'nggida o'z yechimin topadi, tomoshabin sahna oxirida buni anglab yetadi. "Yig'i devori" tasviri iste'dodli dekoratsiyachi rassom Mariya Soshina tomonidan yaratilgan. "Yig'i devori" rassomning ajoyib g'oyasiga ko'ra yakkaxudolikka asoslanagan uchta din ramzlari, yulduz, xoch va yarim oy uyg'un tarzda aks etgan parcha shaklida ifodalangan.

Haqiqatdan ham, doktor Falk Bomsdorf tolerantlik haqida gap ketganda nima sababdan Lessingning "Donishmand Natan" dramasi yodiga olgani, asarni o'zbek tiliga tarjima qildirib, Milliy akademik teatrda sahnalashtirishni orzu qilgani endi tushunsa bo'ladi. Bu olijanob ishni ro'yobga chiqarishda doktor Falk Bomsdorf Toshkentdagi Gyote instituti yaqindan ko'maklashdi. Dramani o'zbek tiliga shoir va tarjimon Mirpo'lat Mirzo tarjima qildi. Uni iqtidorli rejissyor Ovloquli Xo'jaquliyev o'zbekchaga moslashtirish jaroyonida Lessing dramasi tarixiy va biografik tafsilotlarni chetlab o'tadi. Shuningdek, ikkinchi darajali personajlardan voz kechadi va shunday qilib asosiy diqqat-e'tiborni dramaning bosh muammosiga: haqiqatga erishish masalasiga qaratadi. Xo'jaquliyev drama materiallaridan dolzarb voqelini aks ettirish, ya'ni din niqobi ostida hokimiyat uchun olib borilayotgan, nafrat va vayronalarda boshqa hech narsani keltirib chiqarmayotgan kurashni aks ettirish uchun foydalanadi. Sahnalashtirish jarayonida matn rejissyor tomonidan tegishli tarzda sahnaga moslashtirilgan.

G.E.Lessingning "Donishmand Natan" dramasi o'zbek tilidagi premerasi 2003 yilning 16-sentyabrda Toshkentda Milliy akademik drama teatri sahnasida, 2004 yilda

Samarqanddagi Sherdor madrasasining ichkari hovlisida bo'lib o'tdi. O'tgan yillar davomida dramani Farg'ona, Xiva, Buxoro, Marg'ilon, Termiz, Qarshi va boshqa shaharlarida ham xalqimiz tomosha qildi.

Bu asarning XXI asrda o'zbek tiliga iste'dodli shoir va tarjimon Mirpo'lat Mirzo tmonidan mahorat bilan tarjima etilishi va "Jahon adabiyoti" jurnalining 2004 yil aprel va may sonida e'lon qilinishi tasodifiy emas edi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyotida 2005 yil bu asarning ruscha va o'zbekcha tarjimasi alohida kitob holida bosilib chiqdi. Bu kitobga Germaniyalik jamoat arbobi, Fridrix Naumann nomidagi xalqaro jamg'armaning Rossiya va Markaziy Davlatlar Hamdo'stligi vakili doktor Falk Bomsdorf so'zboshi yozgan.

Bu asar o'ta hayotbaxsh, o'ta dolzarb va umuminsoniy ahamiyatga molik olijanob g'oyani ifodalash, avlodlar qalbiga quyish, ularni g'ayriinsoniy hatti-harakatlardan tiyish, yer yuzida tinchlik va osoyishtalik, mehr va muhabbat tantana qilgan hayotni barpo etish maqsadida yozilgan.

Asarni o'qigan, uni sahnada ko'rgan tomoshabin tolerantlik, ya'ni hayotda sabr-toqatli bo'lish, o'zgalar fikriga ham quloq solish, eng asosiysi, diniy qadriyatlarni hurmat qilish kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lishni ko'ngliga tugadi.

Buyuk mutafakkir G. E. Lessing asarida G'arb va Sharqning moddiy va ma'naviy tushunchalaridagi mushtaraklik masalasi, ma'rifatparvarlik g'oyalari talqini asosida yoritilgan. Mavzuning ilmiy asosda o'rganilishi Lessing asarlarida ya'ni "Emiliya Galotti" dramasida odob va axloq masalasining sharqona va g'arbona talqini hamda "Donishmand Natan" dramasida Sharq motivi (tolerantlik g'oyalari)ning mushtarak talqini masalalarini tahlil etishni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov.I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: „O'zbekiston“, 2011.
2. Karimov.I.A Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: „Ma'naviyat“, 2008.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005.
4. Verfassung der Republik Usbekistan. T.: „Usbekistan“, 1992.
5. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Т.: «Ўзбекистон», 2001.
6. "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 12-son, 28-yanvar 2010 yil.
7. G' Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1978.
8. G' Salomov. Tarjima nazariyasi asoslari. T.: "O'qituvchi", 1983.
9. O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi. T.: "Fan" nashriyoti, 1985.
10. Tarjima san'ati. 3-kitob. T.: 1976.
11. Tarjima san'ati. 5-kitob. T.: 1980.
12. K. Jo'rayev. Tarjima san'ati. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1982.
13. G' Salomov va boshqalar. Tarjima mahorati, T.: "Fan" nashriyoti, 1979.
14. Jahon adabiyoti. 5-6 sonlar. 2004.
15. Jahon adabiyoti. 7- son. 2008.
16. Jahon adabiyoti. 1-son. 2012.
17. G. E. Lessing. Gesammelte Werke. 1-10 Bänder, Aufbau-Verlag Berlin, 1954.
18. G. E. Lessing. Donishmand Natan. Toshkent, O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
19. G. Boccaccio. Das Dekameron. Aufbau-Verlag Berlin und Weimar, 1982.
20. Дж Боккаччо. Декамерон. Т.: 1991.
21. J. Bokkachcho. Dekameron. T.: 1979.
22. Н. А. Жирмунская. Хрестоматия по немецкой литературе XVIII века. Ленинград, «Просвещение», 1976.
23. Azizov. Q. va Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 1987

Eletron ta'lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.google.de
3. www.google.uz
4. www.meindeutschbuch.de
5. www.lingo.de
6. <http://www.learn-german-online.net/learning-german-resouces/grammatik.htm>
7. <http://www.daf-portal.de/uebungen/index.php?viewCat=2>
8. <http://www.canoo.net/services/OnlineGrammar/Wort/Ueberblick/index.html?lang=de>
9. <http://www.deutsch-online.com/modules.php?op=modload&name=News&file=index>
10. http://rechtschreibung-grammatik.suite101.de/article.cfm/die_artikel_im_deutschen